

**O'zbekiston Respublikasi
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi**

**Andijon davlat universiteti
Pedagogika fakulteti**

5111800 – Maktabgacha ta'lim yo'nalishi

4-kurs 1 - guruh talabasi

MAHKAMOVA ZARNIGORning

**“Maktabgacha ta'lim muassasalarida kichik yoshdagi bolalar nutqini
o'stirishda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanish yo'llari”
mavzusidagi**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar:

G. Teshaboyeva

Andijon – 2017

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
I Bob. Maktabgacha ta'limda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning nazariy asoslari	12-13
1.1.Maktabgacha ta'lim muassalarida bolalar nutqini o'stirishda topishmoqlardan foydalanish	14-15
1.2.Maktabgacha ta'lim muassalarida bolalar nutqini o'stirishda folklor qoshiqlardan foydalanish	16-17
1.3. Maktabgacha tarbiya muassalarida ertaklarni o'rgatish orqali bolalar nutqini o'stirish	18-22
II BOB. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.	
2.1. Kichkintoy ertagida g'oyani talqin etishning o'ziga xosligi.....	33-56
2.2. Bolalar obrazi.....	57-65
Xulosa.....	66-69
Foydalanilgan adabiyotlar.....	70

K I R I S H

Mavzuning dolzarbligi. Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali, bilimli, yuksak insoniy fazilatlarga ega kadrlarning majmuidir.

Davlatimiz esa mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelmoqda. Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalardan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir. 1997 yil 29 avgustda O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" uni amalga oshirish uchun huquqiy asos bo'lib xizmat qilmoqda. Jumladan, "Kadrlar tayyorlash milliy dasturiga muvofiq, ta'lim tizimining asosiy bo'g'ini – bu umumiy o'rta ta'lim ekaniga guvoh bo'lamiz. Haqiqatan ham, maktabda olingan bilimgina kasbiy bilimlarni egallash uchun zamin bo'la oladi. Bu o'rinda maktabning eng muhim vazifasi – o'quvchilarning ilmiy bilimlarni chuqur va puxta o'zlashtirish, ularni amaliyotda qo'llash malaka va ko'nikmalarni ishlash, ilmiy dunyoqarash va ahloqiy-estetik madaniyatni shakllantirishga erishishdan iborat.

Axborotlar jadallik bilan integratsiyalashib borayotgan hozirgi davrda zamonaviy ta'limning asosiy vazifalardan biri atrof voqea-hodisalarini bilish orqali mustaqil tahlil qila oladigan shaxsni kamol toptirishda namoyon bo'ladi. Bu maqsadga, albatta, o'quvchilarning bilish faolligini oshirib borish orqali erishish mumkin. Chunki inson hamisha o'zini qurshab turgan olam haqida tobora ko'proq bilishga intilib kelgan.

Fikrning bilmaslikdan bilishga qarab, to'la va mukammal bo'lmagan bilimdan to'la va mukammal bilimga qarab harakat qilishdan iborat cheksiz jarayon bilish deb ataladi. Bu ta'rif esa uning tafakkurlash, anglash, fikr yuritish bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatib turibdi. YA'ni bilish – bu avvalo fikrlash, olamni bevosita anglashdir.

Maktabgacha ta'limda bolalarga mashg'ulotlarni zamon ruhi bilan hamnafas olib borish O'zbekiston Respublikasining istiqbolga erishuvi, o'zbek tiliga e'tiborning kuchayishi ilm-fan sohasida ham katta tadqiqotlarni amalga oshirishni talab etmoqda. Bu davrda milliy tilning nozik qirralarini bilish, undan nutq jarayonida unumli foydalanish madaniylik ko'rinishlaridan biridir. Fan va texnika rivojlangan paytda hayotimizda matbuot, radio va televidenie ishlari tobora kengaymoqdaki, oqibatda adabiy tilga bo'lgan e'tibor ham kuchaymoqda. Umuman, hozirgi davr tilini va uning leksik, grammatik hamda stilistik xususiyatlarini chuqurroq bilishni davr talab etmoqda. Chunki tilni bilish dilni bilishga yo'l ochadi, deb bejizga aytishmagan donishmandlar. Tilni bilish va uning nozik imkoniyatlarini o'quvchi qalbida joylash o'qituvchining hayotiy zaruriyatidir.

Nutq o'stirish mashg'ulotlarida turli xil qo'shimcha manba va ma'lumotlardan foydalanish mumkin. Shunday qo'shimcha ma'lumotlardan biri xalq og'zaki ijodi namunalari. O'zbek xalq ijodi namunalarining mavzulari, g'oyasi, tuzilishi, mazmuni, ta'limiy va tarbiyaviy tomonlari yuzasidan talay fikrlar bildirish mumkin. Boshlang'ich sinf o'qish darslarida xalq og'zaki ijodi namunalaridan darslarida o'rinli foydalanish va bu ishlarni uyushtirish yo'llari haqida juda ko'plab ishlar bajarilgan hamda talay tavsiyalar berilgan. Biz ham bu sohaga murojaat etib, qilingan ishlarni keng va atroflicha tahlil qilishga bu sohada echimini kutayotgan o'rganilishi zarur masalalarga e'tiborni qaratishga harakat qildik. Ona tilimizning rang-barang xususiyatlarini o'rganar ekanmiz tilimizning boy qirralarini hushyorlik bilan anglash va ehtiyotkorlik bilan ishlatishni o'rganmog'imiz kerak.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Munozaraga tashlanayotgan muammo yuzasidan atroflicha ishlar qilingan bo'lsa-da, ammo maktabgacha ta'lim muassalarida bolalar ongiga xalq og'zaki ijodi namunalarini singdirish va ular orqali bolalarning nutqini o'stirish yuzasidan shaxsiy mulohazalarni o'ylab yurar edik. SHu bahona bitiruv malakaviy ishimizda bu mavzuga qo'l urdik.

Ishning maqsad va vazifalari.

Malakaviy ishimiz uchun quyidagi maqsad va vazifalarni belgiladik:

- Maktabgacha ta'lim muassalarida xalq og'zaki ijodi namunalarini o'rgatishning maqsad va vazifalarini aniqlash;
- topishmoq va ertaklar o'rgatish orqali ta'lim-tarbiyaning eng muhim o'rinlarini singdirish usullarini ishlab chiqish;
- nutq o'stirish mashg'ulotlarida ertaklarni o'rgatish orqali qayta hikoya qilishga o'rgatish;
- xalq og'zaki ijodini o'rgatish orqali ta'limning interfaol usullarini amalga oshirish.

Ishning metodologik asoslari va metodlari.

Tadqiqot metodologiyasini dialektik mantiq qonunlari tashkil etadi. Tadqiqotni amalga oshirishda analiz qilish, sintez qilish, qiyoslash, uzviy tahlil, distributsiya, zidlovga qo'yish va boshqa metodlardan foydalanildi.

Ishning ilmiy yangiligi. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida bolalar ongiga xalq og'zaki ijodi namunasi – maqollar, topishmoqlar tez aytishlar, xalq qo'shiqlari va ertaklarni o'rgatish orqali ta'limning interfaol usullarini amalga oshirish yo'llari yuzasidan shaxsiy mulohazalar ishlab chiqishga harakat qildik.

Ishning nazariy va amaliy ahamiyati. Nutq o'stirish mashg'ulotlarida xalq og'zaki ijodi namunalari ustida ishlash orqali nazariy ma'lumotlar keng va atroflicha bolalarga o'rgatildi. Ishni amaliy jihatdan maktabgacha ta'lim muassalarida va pedagogika institutlarining tegishli bo'limlari talabalari bitiruv malakaviy ishi, kurs ishi loyihalari uchun material sifatida hamda malakaviy amaliyoti davomida amaliy foydalanishlari mumkin.

Ishning tuzilish va umumiy hajmi.

Ish kirish (ishning umumiy tavsifi), ikki asosiy bob, umumiy xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib, hajmi – 80 sahifa.

I bob. Maktabgacha ta'limda xalq og'zaki ijodi namunalaridan foydalanishning nazariy asoslari

SHarq xalqlari qadimdan ta'lim va tarbiyaga jiddiy e'tibor berib, kelganlar. Bugungi kunda hali bu muammo o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q. Xalqimizning qadimgi urf odatlari, an'analari va muomala madaniyati hisoblangan merosini o'rganish xar bir mustaqil davlat fuqarolarining ma'naviyatini shakllantirish ishining eng asosiy shartlaridan biridir. SHuni aytish kerakki, maktab o'qituvchilari asosiy ishlarini bolalarga o'z fani bo'yicha ta'lim berish deb hisoblaydilar. Ular shosha — pisha dasturdagi fan asoslarini bolalarga singdirish payida bo'ladilar.

Ammo ta'lim hayotga bog'lanmasa, avvalo bolalar ongiga etib bormaydi, kirib borganda ham biror o'zgarish yasamaydi. Tarbiya bilan, hayot bilan asoslanmagan ilm uzoq mudat muallaq qolib ketadi.

SHu bois ta'lim va tarbiyani milliy madaniyatdan ajralgan holda yo'lga qo'yish insonlarni ajdoddar merosidan, nasli nasabidan uzoqlashtirishga olib keladi. Ayniqsa milliy o'z — o'zini shakllanmasligi milliy — madaniy masalalar yuzasidan xech narsani bilmaslik milliy xudbinlikning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Ijod — xalqning hayot tarzi, taomillashish manbai. SHu yo'l bilan xalq tabiati va hayoti yuksalib boraveradi. Xalq ijodiga yo'l berish yuksaltirish demakdir. Unga yo'l berish uchun esa, avvalo, uni o'rganish, so'ng kerakli tomonlarga yo'naltirish zarur.

Demak, xalq ijodiyotini o'rganish xalqimizning asrlar davomidagi xayot tarzini, urf — odatlarini, eng yaxshi milliy an'analarni, umuminsoniy ahamiyatga ega bo'lgan g'oyalarni o'rganishdan iborat. Bugungi kunda biz xalq og'zaki ijodiyotiga mana shunday ko'z bilan karagan holda uni o'quvchilarga o'rgatishimiz, ulardagi ulug'vor g'oyalarni ongiga singdirib borishimiz zarur.

Xalq og'zaki ijodini o'rganish shunchaki badiiyatni o'rganish emas, balki ulardagi vatanparvarlik, qahramonlik insonparvarlik, mehnatsevarlik, ilm va

hunarga kuchli e'tibor, to'g'rilik va rostgo'ylik kabi jahon xalqlariga, barcha pokdil, chin insonlarga ma'qul bo'ladigan g'oyalarni o'rganish demakdir.

Har bir maqol, matal, ertak, rivoyat, qo'shiq, doston va boshqalar xaq qalbiga yaqin, aslida ulardan yuzaga kelgan orzu armonlar, intilishlar yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Ayniqsa ertak va dostonlarning qahramonlari xalq tasavvurida barkamol insonlardir. Ularning maqsadlari bilan xalqning maqsadi uyg'undir. Xalq xamma vaqt tinch va osoyishta, go'zal va farovon, to'kin sochin va obod mamlakatni orzu qiladi. Uning qaramoni aynan mana shunday mamlakatlarni yaratish harakatida fidoiylik ko'rsatadi.

Jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida yaratilgan xalq asarlari xalqning ijtimoiy — siyosiy ideallari, bu ideallarni gavdalantiruvchi, o'sha davrga xos fazilatlar egasi bo'lgan qahramonlarini bunyodga keltirgan asarlardir. Ularning ahamiyati bugungi kunimiz uchun va hamma zamonlar uchun ham bir xildir. Chunki ularda umuminsoniy manfaatlar himoya qilinadi, ezguliklar targ'ib qilinadi.

CHinakam insonga xos bo'lmagan xususiyatlar qoralanadi.

Xalqimizning qadimiy va asrlar osha bizgacha etib kelgan og'zaki ijod namunalari milliy qadriyatlarimizning bir bo'lagidir. Qadim zamonlardan oq Turon, Turkiston, xalqi o'zining ko'xna tarixi, boy og'zaki ijodi, yozma yodgorliklari, urf — odat va an'analari bilan ajralib turgan.

Turkiy xalqlarning boy og'zaki ijodi o'z ichiga qadimiy SHarq falsafasini, pedagogikasini, tarixini ma'lum darajada qamrab olgan.

Hech bir xalq o'z —o'zini anglamasdan milliy madaniyatini, milliy qadriyatlarni avaylab — asrab saqlamasdan turib, boshqa xalqlarning qadriyatiga hurmat —izzat bilan qaray olmaydi. SHuning uchun milliy tiklanishi umuminsoniy qadriyatlar sari rivojlanishning yakka — yagona yo'lidir.

"Dunyodagi barcha kashfiyotlarni, noyob yodgorliklarni, san'atning nodir durdonalarani xalq yaratgan yoki uning ayrim iste'dodli farzandllari yaratganlar".

Og‘zaki ijodni esa tom ma’noda har bir xalqning o‘zi yaratadi. Ammo bu degani turkiy xalqlar folklori yo‘q erdan paydo bo‘ldi degani emas. Asrlar davomida qo‘shni xalqlarning og‘zaki ijodi namunalari xam ma’lum darajada ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi kerak. SHunday qilib xalq ijodkordir. U san’atning hamma durdonalarini yaratgan. Og‘zaki ijod esa so‘z san’atining boshlanishidir.

1.1.Maktabgacha ta'lim mussalarida bolalar nutqini o'stirishda topishmoqlardan foydalanish.

Qadim-qadim zamonlardan o'zbek xalqi o'z bolalarini kuchli, epchil, aqlli qilib tarbiyalashga katta ahamiyat bergan.O'sha paytlarda hali bolalarga ta'lim-tarbiya beradigan maktablar yo'q edi. Shuning uchun ham xalq turli o'yinlar o'ylab topgan.Masalan, „Bekinmachoq“, „Chillak“ka o'xshash o'yinlarda ishtirok etuvchi bolalarda chaqqonlik, epchillik kabi jismoniy hislatlar paydo bo'la borgan. Xo'sh, endi bolalarning zehni charxlash uchun nima qilish kerak edi? Topishmoq, jumboq singari aqliy o'yinlar ana shu savolga javob izlash jarayonida xalq tomonidan yaratilgan. Topishmoqlarning ham ijodkori xalqdir.Yuzaki qaraganda kattalar bilan bolalar, bolalar bilan kattalar o'rtasida topishmoqlar aytish shunchaki bir ermakday tuyuladi, zerikmaslik uchun, vaqtni tez o'tkazishga qaratilganday ko'rinadi. Aslida esa topishmoqlar fikr qayrovidir, ular orqali bola obrazli fikrlaydigan va obrazli so'zlaydigan bo'ladi.Topishmoqlar bolada so'z boyligining orta borishiga va nutqining o'sishiga yordam beradi. Bolaga topishmoq topishni o'rgatish unda fikrlashning asta-sekin yuksalishiga sabab bo'ladi. Demak, xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng faol janrlaridan biri topishmoqdir. Topishmoqlar inson, ijtimoiy hayot va tabiat hodisalari bilan chambarchas bog'langan bo'lib, hamma vaqt real voqelikka asoslanadi. Unda atrofimizni o'rab turgan moddiy dunyodagi turli narsalar aks etadi. Har bir topishmoq o'ziga xos shakl va mazmunga ega bo'lgan mustaqil bir asardir.Unda falsafiy, tarixiy, etnografik belgilar, tushunchalar, hodisalarning mohiyati nihoyatda go'zal, obrazli ifodalar bilan aksettiriladi. Bu janr ikki kishi yoki jamoa o'rtasida berilgan jumboqli savolga javob qaytarish tarzida ijro etiladi. An'anaviy topishmoqlarning savol qismi tabiat, tabiat hodisalari, umuman,har bir obyektga badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish,taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlanadi. Javob qismi esa obrazlar orqali jumboqlangan obyekt —narsa yoki tabiat

hodisalarning otini aytib berish, ma'nosini topish, yashiringan narsani yechish, bilishdan iborat. Shu narsa diqqatga sazovorki, har bir topishmoq turmush bilan chambarchas bog'langan bo'ladi. Topishmoqda atrofimizdagi narsalarning badiiy-estetik tomonlari, xalqning urfodatlari aks etadi. Shuningdek, tabiat, tabiat hodisalari vanarsalarni bir-biriga taqqoslash, o'xshatish orqali borliqni, undagi mavjud narsalarning mohiyatini yaxshiroq tushunishga katta yordam beradi. Xalq og'zaki ijodining eng boy janrlaridan biri bo'lgan topishmoq ikki qismdan iborat bo'lib, topishmoqning asosiy qismi bo'lgan javob obrazlar orqali jumboqlangan obyekt narsaning otini aytib berishdan iboratdir. Uning savol-jumboq qismi tabiat, tabiat hodisalari va narsalarni, umuman, obyektни badiiy tus berilgan holda obrazlashtirish, taqqoslash, o'xshatish orqali jumboqlashdan tashkil topgan. Topishmoqning jumboq qismi bilan javobi birgalikda bir butunlikni tashkil etadi. Topishmoq o'z ichiga borliqdagi hamma narsa va hodisalarni, ularning turli-tuman ko'rinishlarini qamrab oladi. Osmon, quyosh, oy, yulduzlar, tabiat hodisalari; odam, uninga'zolari; hayvonot dunyosi; qushlar, hasharotlar; daraxt, turli xil o'simliklar, meva, sabzavotlar; uy-ro'zg'or buyumlari; mehnat qurollari, umuman, hamma narsalar haqida ko'plab topishmoqlar yaratilgan. Zero, topishmoq hozirgi vaqtda ham o'zining g'oyaviy, tarbiyaviy ahamiyatini yo'qotmagan.

Hozirgi kunda ham har xil narsa va hodisalar haqida yangidan-yangi topishmoqlar yaratilmoqda. Topishmoqlar, ayniqsa, kichkintoylarning fikrlash qobiliyatini o'stirishga, ularni muayyan bir fikrni badiiy tusda ifodalashga va ziyraklikka, topqirlikka o'rgatadi. Yaxshi tarbiya — bolalarni istagan paytda ojizni himoya qilishga tayyor turuvchi insonparvar kishilar sifatida voyaga yetkazishdan iboratdir. Bolalikda bu hayvonlarni himoya qilishdan, hatto ninachilar, kapalaklar va gullarga rahmdil bo'lishdan boshlanadi. Deylik, deraza oldida ikki bola turibdi.

O'g'il bola — ikkiyoshda, qiz esa to'rtta. Ular oynaga burunlarini taqagancha ko'chani tomosha qilishyapti. Oxiri ko'chaga qarash jonlariga

tegib, oynaga urilayotgan kapalakni tutib olishdi-da, qanotlarini yulib tashlab, uning oʻrmlashini tomosha qila boshlashdi. Ularga bu juda qiziq tuyulardi. Avval uchib yurgan edi, endi boʻlsa oʻrmlayapti.—Dada, oyi, —deyishdi ular hayajonlari oshib-toshib. —Bu yoqqa kelib, mana buni koʻringlar! Ularning bu oʻyiniga dadasining negadir qaragisi ham kelmadi.—Kapalakning qanoti ham xuddi sizlarning qoʻllaringizga oʻxshaydi, — dedi u. — Mabodo kuchli bir odam sizlarni ham kapalakka oʻxshatib oʻynaganda yaxshi boʻlarmidi? Hech kimning va hech narsaning jonini ogʻritmaslik kerak. Tabiiyki, bolalar nima qilishlarini bilmay, bir-birlariga tikilib qolishadi. Ana shunda ota jahlidan tushib, avval oʻzi aytib bergan, bolalarning oʻzlari oʻqigan tabiatni — jonivorlarni, parranda-yu darrandalarni, qurt-qumursqalarni oʻldirmaslik, parvarish qilish, koʻpaytirishdek vazifalarni ularning eslariga solsa va shu yoʻsinda jozibali topishmoqlar aytishni boshlab yuborsa, ayni muddao boʻladi. Uy hayvonlari, jonivorlar orasida hamma uchun yaqini, suyuklisi, eʼzozlisi sigir hisoblanadi. Har qanday holatda ham sigir oila boquvchisi, yordamchisi hisoblanadi. U parvarish qilinsa, oʻz vaqtida oʻt-yemi berib turilsa, sut-u qaymoq bilan mehmon qilaveradi. Uning haqidagi topishmoq ham juda hayratlanarli:

Erta ketar laylixon,

Kechda kelar laylixon,

Turli-tuman bogʻchalardan,

Yigʻib kelar laylixon.

Bolalar uchun hayvonlar ichida qiziqarlisi tuya hisoblanadi. Bizning elimizda tuya oʻtroq hayvonlardan boʻlishiga qaramay, bu jonivor hamisha bolalarni oʻziga rom qilib keladi. Uning tuzilishi, oʻrkachlari, tuyoqlari, ogʻzidan oq koʻpik chiqarishi, yantoq yeyishi, suvsiz, oʻtsiz bir qancha vaqt hayot kechirishi, kuch-quvvatda tengsizligi xalq tomonidan toʻplangan koʻplab topishmoqlarda oʻz aksini topgan. Tuyalar toʻgʻrisidagi har qanday topishmoqni bolalar zoʻr mamnuniyat bilan tinglaydilar va zukkolik bilan yechadilar: —Bir qiziq hayvon, — Boʻyni kamalak,

Yelkasida togʻ. Yemishi yantoq.

Fil emas, ammo Yurar sahroda
Izlari yalpoq. Haftalab chanqoq.
Ipakdek mayin Top-chi, Ruqiya,
Junlari yumshoq. Bu nima?

— . . .

Bolalar, ayniqsa, o'g'il bolalar otni yaxshi ko'radilar. Ular hamisha ot boqish, uni parvarish qilish, cho'miltirish, minish, o'z chavandozliklarini ot poygalarida, uloqlarda namoyish qilish fikri bilan yashaydilar. Shu ma'noda ot haqidagi mana bu jumboqni ham osongina yechib oladilar:

To'rt oyoqlik,

Temir tuyoqlik.

Uy hayvonlari va jonivorlari ichida qo'y o'ziga xosligi bilan ajralib turadi. U nihoyatda nozikta'b bo'ladi. O't-yemni haddan tashqari saralab yeydi. Hatto har qanday o't-maysani bir tishladimi, tamom, ikkinchi marta unga qayrilib ham qaramaydi. Bu xususiyat quyidagi topishmoqda o'z aksini topgan:

Kishi ko'rsa kishnamas,

Yerdan cho'pni tishlamas.

Topishmoq-jumboqni hamisha aqlli, esli-hushli, bilimdon, dono bolalar yecha oladilar. Chunki har bir topishmoqda kishini o'yantiradigan, chuqur xayolga, o'yg boradigan jihatlar mavjud bo'ladi. Yo'lbars to'g'risida to'qilgan quyidagi topishmoq xuddi shu haqda bahs yuritadi:

Man-man, maniki,

Har tirnog'i o'n ikki.

Qildan ola to'ni bor,

Quyrug'ida xoli bor.

Uni topgan yigitning

Aqlining koni bor.

Parranda va qushlar haqida yaratilgan minglab topishmoqlar bolalarni har doim o'ziga tortib keladi. Bular orasida xo'rozning xatti-harakati, o'zini tutishi,

qanotini qoqib, bo‘ynini cho‘zib „qu-qu“ deyishi qaysi bolaning fikrini o‘ziga tortmagan deysiz:

Bir qo‘shnim bor avval boshdan,

Soqoli uning qizil go‘shdan.

Faqat turib shovqin solar,

Xabari yo‘q hech bir ishdan.

Mehnatkash xalq tomonidan to‘qilgan ayrim ertaklarda, rivoyatlarda jonivorlarning kulgili tomoni ochib beriladi. Bir rivoyatda to‘rt xil jonivorning hayotda qo‘rqoqligi kulgiga olinganligini ko‘ramiz. O‘shalardan birinchisi — chittak qush osmon yiqilib ketishidan qo‘rqib, oyog‘ini osmonga ko‘tarib yotadi; ikkinchisi — laylak ikki oyog‘ini qo‘ysa yerga botib ketishidan qo‘rqib doim bittasini ko‘tarib turadi; uchinchisi — chuvalchang ko‘p loy yesam yer tugab qoladi, deb qo‘rqib och yuradi; to‘rtinchisi — ko‘rshapalak inson uning go‘zalligiga maftun bo‘lishidan va boshqa qushlar kabi tutib qafasga solishidan qo‘rqib kunduzlari uyasidan chiqmaydi. Ana shular orasida laylak bolalar qalbiga yaqin turadi. Xalq qo‘shiqdarida, ertak, rivoyatlarida go‘yo u bahorni, yozni boshlab keladigan qush sifatida qaraladi.

Laylak keldi yoz bo‘ldi,

Qanoti qog‘oz bo‘ldi,

Laylakjonning kelishi,

Biz bolalarga soz bo‘ldi, —

qo‘shig‘ining bolalar orasida hamisha avj pardasida bo‘lishining sababi ham ana shunda. Laylak haqida yaratilgan quyidagi topishmoqda keltirilgan jumboqni bolalar hech qiynalmay yechib oladilar:

Uzun-uzun yelgan qush,

Inda yotgan ilonni

Pol ko‘rganda bilgan qush.

Bo‘ynin quloch uzitgan.

Tumshug‘i bilan putini

Qaysi avliyo qizartgan.

Biz yuqorida topishmoqlarning mavzusi juda rang-barang ekanligini aytgan edik. Buniari, kapalak, chigirtka, qo'ng'iz, chayon, chumoli, 'rgimchak, pashsha, chivin misolida ham ko'rishimiz mumkin. Ular orasida kechasi-yu kunduz ishlab charchamaydigan, o'zaro ahil chumolilarga bag'ishlangan

topishmoqlar fikrimizga asos bo'ladi:

— Yerdagi jonivorlarning,

Eng kichigi, mittisi.

Dalaga chiqar uydin,

Kelsa bahorning isi.

O'zilik barchasi,

Mehnatga tushar shaxdam.

Tashir ushoq, don-u has.

Zahmatkashdir, bilmas dam.

Yashash zavqin mehnatdan,

Ekanligin biladi.

O'ng-u so'lga yugurib,

Tolmay mehnat qiladi.

Kichkintoylar topishmoqlari orasida inson a'zolariga bag'ishlangan ko'plab, topishmoqlar kichkintoylar quvonchiga-quvonch qo'shib kelmoqda. Shu narsa ham jozibaliki, chevar xalq o'zi to'qigan asarida inson a'zolariga alohida urg'u beradi. Har bira'zoning inson hayotida juda katta ahamiyat kasb etishini pardoz-andozi bilan tinglovchi ongiga yetkazadi. Ana shunday a'zolardan biri — tish topishmoqda yuksak darajada ta'rifga ega:

Biz-biz edik, biz edik, Shuni topgan bolaning

O'ttiz ikki qiz edik. Yuz yigirma ikki yoshi.

Ikki safga tizildik, Bir uychada turadi,

Birin-ketin uzildik. O'ttiz ikki pahlavon.

Shov tegirmonning toshi, Birdek kiygan libosi,

Oltin egarning boshi. Birdek ahil-jonajon.

Topishmoq janri yozma adabiyotning rivojiga ham katta hissa qo‘shgan. Chunonchi, u Cho‘lpon, Abdulla Qodiriy, Oybek, G‘afur G‘ulom, Zafar Diyor, Quddus Muhammadiy, Po‘lat Mo‘min, Qudrat Hikmat, Anvar Obidjon va boshqa qalamkashlar tomonidan yaratilgan nazm va nasrda o‘z ifodasini topgan.

Masalan, G‘afur G‘ulom „O‘ylashni o‘rganamiz“, „Buni toping, qizlarim“ asarlarida topishmoq janrini yuksak qadrlaganligini ko‘ramiz. „Buni toping, qizlarim“ topishmoq asari kichkintoylarning ong, tushuncha, fikrlarini rivojlantirishda muhim tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi:

— To‘ni silliq, tuki yo‘q. — Malla tukli, sap-sariq,
Hammasi to‘q, po‘ki yo‘q, Murabbos mazalik.
Ichi qizil, ko‘ki yo‘q, Palovga bossa bo‘lar,
Uni cho‘qolmas chumchuq, Omborga ossa bo‘lar.
Bu nima, qizim Qunduz? Tishlab ko‘rib, ayt, Mehri,
— Bumi, dadajon? (Tarvuz). — Bumi, dadajon? (Behi).
— Marjon-marjon yumaloq, Mayda yoqutday qizil,
Yaproqlari shapaloq, Shirin, nordon, xilma-xil,
Qora, qizil, sariq, oq, Qalin, taxir po‘sti bor,
Yeb ko‘rmasdan o‘ylab boq. Hamma yerda do‘sti bor,
Sen ayt, Mamlakat qizim. Sen ayt-chi, qizim Gulnor.
— Bumi, dadajon? (Uzum). — Bumi, dadajon? (Anor)

Yuqoridagi sharhlardan ko‘rinadiki, bola topishmoqsiz o‘smaydi. U kattalar, bolalar davrasida ko‘plab fikrlar qayrovi—jumboq tinglaydi, o‘zi ham qatnashadi va yechadi. Bu esa uning kelajakda o‘ziga pishiq-puxta, aqlli, zakovatli inson bo‘lib kamol topishi uchun mustahkam zamin bo‘ladi.

1.2.Maktabgacha ta'lim muassalarida bolalar nutqini o'stirishda falklor qo'shiqlardan foydalanish.

Alladir hayotda sevimli qo'shiq,
Onalar kuylaydi yurakdan jo'shib.
Bolasin umriga umrlar tilar,
Allaga dildagi niyatin qo'shib.
Bu qanday sinoat, men bilolmadim,
Ta'rifiga so'zlar topa olmadim.
Allalar eshitib, o'sib-ulg'aydim,
Dard cheksam, allani tinglab sog'aydim!

Bu hammaning gapi, hammaning dil so'zi, hammaning allaga, onaga iqronomasi, ta'zimi. Yoshi ulug'mi, kichikmi alla eshitgan, alla og'ushida, ta'sirida o'sgan, ulg'aygan, esini tanigan, kamol topgan, inson bo'lgan. Alla xalq og'zaki ijodining eng oliy turi hisoblanadi. Allada onaning o'yi, xayoli, ezgu niyati, porloq kelajak uchun intilishi, kurashi o'z ifodasini topgan bo'ladi. Alla millat tanlamaydi, uning matnini tushunmasa-da, ohangi-kuyini eshitgan har bir inson bosh chayqaydi, beshik kabi ohista tebranadi, orom oladi, o'zini-o'zi taniydi, xayoli bolaligiga ketadi, hayotda yo'l qo'ygan xato va kamchiliklarini tuzatib olishga intiladi. E'tibor bering:

Tol beshikni tebratib,
Ona aytar qo'shig'in.
Qo'shiq bilan tebratar
Dunyoning tol beshigin.
Bu beshikda ulg'ayar
Necha ming, millionlar.
Ona mehri ziyosi
Yuraklarga yo'l olar.
Bu beshikda tinglashar
Mayin-mayin allalar.
Uchib o'tgan yel bilan

Olam bo‘ylab taralar.
Tol beshikni tebratib,
Ona aytar qo‘shig‘in.
Qo‘shiq bilan tebratar
Dunyoning tol beshigin.

Alla qadimiy xalq qo‘shig‘i. Alla va beshik hamohang yuradi. Bu haqda buyuk alloma Abu Ali ibn Sino „...Bolaning mijozini kuchaytirmoq uchun unga ikki narsani qo‘llamoq kerak. Biri bolani sekin-sekin tebratish, ikkinchisi, uni uxlatish uchun odat bo‘lib qolgan musiqa va allalashdir. Shu ikkisini qabul qilish miqdoriga qarab bolaning tanasi bilan badantarbiyaga va ruhi bilan musiqaga bo‘lgan iste’dodi hosil qilinadi“, deb alla va beshikning norasida kamolotida muhim ahamiyat kasb etishini ta’kidlab o‘tgan. Buni dildan his qilgan ona chaqalog‘ini o‘zi suygan, e’zozlagan har narsadan yuqori qo‘yib alla aytadi:

Sen bog‘imning bahori,
Sen umrimning nahori,
Sen qalbimning ohori,
Onajoni shunqori, alla-yo, alla.

Odatda, onaning orzu-armonlari bir talay bo‘ladi. Dilidagi ezgu niyatlarini allaga qo‘shib jo‘shib kuylaydi. Bola birinchi navbatda sog‘lom fikrli, el-yurt o‘g‘loni bo‘lib kamol topishi kerak. Allada shu g‘oya yaqqol ko‘zga tashlanib turadi:

Onasining erkasi,
Uxlab qolsin, alla-yo.
Bo‘lsin inson sarasi,
Obro‘ olsin, alla-yo, alla.

Inson birdaniga yuqori martabali, o‘qimishli, oq-qoraniajrata oladigan bo‘lmaydi. Buning uchun qunt bilan o‘qish, o‘rganish, ilmi bo‘lish kerak. Quyidagi alla ham juda jozibali chiqqan:

Ko‘chalarda o‘ynab yursin,

Maktablarda o‘qib yursin.

Mulla-yu mudarris bo‘lsin,

Martabasi ulug‘ bo‘lsin.

Chaqaloq olamga kelishi bilan dastlab ota-onani taniydi. So‘ng oila a‘zolari, jonivorlar, parranda-yu darrandalar bilan oshno bo‘ladi. Tabiat insonga xizmat qiladi. Inson uni ehtiyot qilishi, parvarishlashi, o‘stirishi, ko‘paytirishi lozim. Shu ma‘noda inson ruhiga o‘z kuyi, qo‘shig‘i bilan quvonch bag‘ishlaydigan qush-bulbulni ham ehtiyot qilishi zarurligi bir

qator allalarning asosini tashkil etadi:

Masalan;

Bulbul sayrar yozina, alla-yo, alla,

Qulluq hush ovoza, alla-yo, alla.

Bermang bulbula ozor, alla-yo, alla,

Bulbul beozor qushdir, alla-yo, alla.

Qadimda och-yupun hayot kechirgan mehnatkash xalq o‘z farzandini kelajakda mard-pahlavon, botir bo‘lib kamol topib, yurt himoyachisiga aylanishiga umid bog‘lagan. Shu bois ham alla qo‘shiqlarida farzandlarini yo‘lbars yurakli, qoplon bilakli bo‘lib voyaga yetishlari uchun allalar to‘qib, farzandi ongiga, shuuriga quyib tarbiya qilganlar:

Masalan;

Yo‘lbarslarday yuraklim, alla,

Qoplonlarday bilaklim, alla.

Yaxshi-yomon kunimda, alla,

Menga juda keraklim, alla.

Ona allasida bolasining ertasi, kelajagi porloq ekanligiga qattiq ishonch ifodasini ko‘ramiz. Quyidagi alla ana shulardan biri sifatida kitobxonda katta taassurot qoldiradi: Masalan;

Alla, bolam-ey, Alla, erkatoy,

Guli lolam-ey. Og‘zing to‘la moy,

Òezroq katta bo‘l, Baxting munavvar,

Mushtoq olam-ey, Sharofatga boy,
Alla, alla-yey. Alla, alla-yey.
Yorqin kelajak, Alla erkatoy,
Seni kutajak. Mushtoq senga toy,
Òoza qalbingga Uxlasang qalbing
Sevinch to‘lajak, Ochadi chiroy,
Alla, alla-yey. Alla, alla-yey.

Ovuntirish-allani hamma — onalar, buvilar, bobolar aytishgan. Alla asta-sekin ommaviy qo‘shiqqa aylanib, qo‘shiqlar uzoq yillar davom etgan. Aytaylik, chaqaloqni birinchi bor beshikka solayotganda aytiladigan qo‘shiqlar. Beshik aslida bir yog‘och-taxta. Paxta, par va matolar bilan burkanganda u yumshoq, har qanday murg‘akka huzurbaxsh joy bo‘lishi har bir beshik qo‘shig‘ida chiroyli ifodaga ega:

Masalan;

Beshigi taxta,
Orqasi paxta.
Egasi keldi,
Kuchugi qoch.
Ichida yotganni
Bahrini och.

Ilk yoshdagi bolalarning badiiy asarlarni qabul qilishining asosi - bu ularga nisbatan emotsional javob, turli xil ohanglarni ilg‘ab olish, ularga munosabat bildirish, imkoniyat darajasidagi adabiy asarlar qahramonlarini tanib olish va ular haqida qayg‘urishdir.

Ushbu yoshdagi bolalar uchun kichik shakldagi she‘riyat, ya‘ni: folklor va mualliflik she‘riyati muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bosh qahramonlari bolalar, hayvonlar bo‘lgan, o‘yinli va maishiy vaziyatlar bayon qilingan asarlar bolalarga juda qiziqarlidir.

Bola kattalar bilan birgalikda matallar va sanoq she‘rlar syujetlari asosida ishtiyoq bilan o‘yinlar tashkil qiladi, u tovush taqlidiga va folklor yo‘nalishidagi bir maromdagi takrorlashlarga quloq tutadi hamda ularga taqlid

qiladi. Maktabgacha tarbiya muassasalarida tarbiyachilar tomonidan bolalarning ko'nglida xalq og'zaki ijodiga va she'riyatga bo'lgan qiziqishlarini mashg'ulotlar o'tish orqali uyg'otish mumkin. Masalan, kichik guruhlarda o'kiziladigan bitta mashg'ulotni ko'rib o'tsak.

Mavzu: " Alla " qo'shig'ini o'qib berish

Maqsad: Bolalarda alla eshitishga nisbatan qiziqish uyg'otish. Bolalarni allaning mazmunini tushunishga yordam berish, bu allani yana eshitishga ishtiyoq uyg'otish va tarbiyachi bilan birga aytish istagini uyg'otish, allani ifodali talaffuz qilishga o'rgatish. Uyqudan turganidan so'ng yuz- qo'lini yuvish lozimligini anglatish.

Vazifa: Bolalarni allani birgalikda eshitib uni aytishga o'rgatish.
Jihozlar. Ko'g'irchoq, beshik, belanchak.

Kutalayotgan natija: Bolalar allani tarbiyachi bilan birga aytishga o'rganadilar.
Mashg'ulotlar borishi: Tarbiyachi bolalarga qo'g'irchoq Lolaxning ko'rsatada va o'ynashga qo'llariga berada Bolalar qo'g'irchoqni ko'llariga olib silaydilar. So'ngra qo'g'irchoqni uxlashga yotqizadilar. Tarbiyachi bolalarga alla aytib beradi.

Kichkinasan Lolasan

Alla, bolam, alyaayo-alla

Qachon katta bo'lasan

Alla, bolam, allayo-alla

Alla, alla orastasan

Alla, bolam, allayo-alla

Alla bir necha marta bolalar bilan birga aytishadi, Alla aytish vaqtida tarbiyachi alla so'zlarini takrorlashiga undaydi. So'ngra ixtayoriy bolalarda allani mustaqil

aytib berishni taklif qiladi, (ixtiyoriy), Bolalar aytib bera olmasalar tarbiyachi boshlab aytadi bolalar davom ettiradilar.

Bolalar bilimlarini bilish uchun savollar

-Qo'g'archoq Lolaxon qaerda uxladi?

-Biz qo'g'irchoqqa qanday alla aytdik?

Demak, alla qoshg'ini tarbiyachi bolalarga o'rgatishdan, aytib berishidan maqsadi ularning lug'atini yangi so'zlar bilan boyitish. Shu bilan birgalikda ifodali o'qishga o'rgatish. Bunday qo'shiqlar kenja avlod kamolotida o'ziga xos tarbiya rolini o'taydi. Kichkintoylar maktabgacha tarbiya muassalarida tarbiyachilaridan chiroyli, ta'sirli alla, qo'shiqlar tinglab, tillari biyron, o'ktam, ziyrak bo'lib voyaga yetar ekanlar, endilikda o'zlari ham hayot yo'llarida qo'shiq to'qib, qo'shiq qanotida o'sib-ulg'ayishga harakat qiladilar. Bunday qo'shiqlarning oliy namunasi „Chittigul“ turkumiga kiradigan qo'shiqlar bo'lishimumkin. „Chittigul“da mavzu nihoyatda rang-barang va juda jozibali.

Chunonchi:

Oq sholiga ko'k sholi,

Oq sholini oqlaylik,

Ko'k sholini ko'klaylik,

Yaxshi kunga saqlaylik,

Ha-yu, chittigul,

Ha-yu, chittigul,—

singari misralariga nazar soladigan bo'lsak, bu qo'shiqda, asosan, g'alla-sholi to'g'risida gap ketadi. Sholining turi, rangini eslatish orqali sholi hosili juda mo'l bo'lganligini; bumo'l-ko'l sholini pala-partish qilib yeb-tamomlamasdan, balki uni ehtiyotlab, tejamkorlik bilan ishlatish darkorligi bolalar tilidan chiroyli tasvirlangan. Qarang, bugungi kunda tejamkorlik, iqtisod haqida bolalarga ko'p gapiramiz. Yuqoridagi qo'shiqdan ayon bo'lishicha, ota-bobolarimiz azaldan har bir narsani tejab-tergab ishlatishni o'z farzandlariga qattiq o'rgatib kelishgan.

Endi mana bu misralarga razm solsak:

Jo‘xorilar bo‘ldi oq,
Qo‘nma, shum qorayaloq!
Agar qo‘nsang, urayin,
Bo‘lar oyog‘ing cho‘loq.
Haq, huvv!

Ko‘rinib turibdiki, kattalarning mehnati bilan jo‘xori ekilgan. Bugungi kunda u hosilga kirgan. Agar jo‘xori qo‘riqlanmaydigan bo‘lsa, qush-qumursqalar yeb, ekinni barbod qiladi. Bu ish kenja avlod — bolaga topshirilgan. Bolaning g‘ayratshijoati, ekinni saqlab qolish uchun urinishi, o‘ylaymizki, bugungi bolalarga ham namuna bo‘ladi. „Agar qo‘nsang, urayin, „Bo‘lar oyog‘ing cho‘loq“ deyishi qaysi bolani kattalarning mehnatiga ko‘maklashishga da‘vat etmaydi deysiz!

Bolalarning aytishuv — „Oq terakmi, ko‘k terak“ qo‘shiqlari ham hamma zamonlarda katta shuhrat qozonib kelgan. Bu qo‘shiqda, ko‘pincha, o‘ziga xos obro‘-e‘tiborga muyassar bo‘lgan bolalar tilga olinadi. Ularning ibratomuz jihatlari bolalar o‘rtasida ta‘kidlanishi qo‘shiqning yanada jozibali chiqishini ta‘minlaydi. Ayniqsa, bu aytishuv qo‘shig‘i bugungi kun, bugungi bolalar to‘g‘risida bo‘lsa, yanada ajoyib bo‘lishini quyidagi parchadan bilish mumkin:

Oq terakmi, ko‘k terak, Ko‘m-ko‘k, ko‘m-ko‘k, ko‘k terak,
Bizdan sizga kim kerak? Bizdan sizga kim kerak?
Erkin qo‘zichoq kerak! O‘zi a‘lo o‘qiydi,
Ola-bula kapalak, Tartibli ham odobli.
Orqa sochim jamalak, Hammani sevar,
Oq terakmi, ko‘k terak, Tikishda chevar,
Bizdan sizga kim kerak? Barchadan chaqqon,
Xayri qizaloq kerak! Hammaga yoqqan
Oppoq-oppoq oq kurak, Go‘zal Ozoda kerak!

Bu kabi aytishuv qo‘shiqlari bolalarni nutqini o‘stirish bilan birgalikda mehnatkash, odob axloqli, o‘qimishli bo‘lib kamol topishga da‘vat etadi. Bunday qo‘shiqlar qanotida o‘sgan har bir bola sog‘lom fikrli, elsevar bo‘lishiga hech

shubha yo‘q. Yuqorida ko‘rib o‘tganimizdek, alla-qo‘shiqlar bolalarning estetik zavq-shavqlarini shiradi. Ularni hayot va mehnatga muhabbat, vatanparvarlik, do‘stlik, ahramonlik, insonparvarlik kabi oliyjanob fazilatlar ruhida tarbiyalashga yordam beradi.

1.3. Maktabgacha tarbiya muassaslarida ertaklarni o'rgatish orqali bolalar nutqini o'stirish.

Xalq og'zaki poetik ijodidagi eng boy va rang-barang janrlardan biri ertakdir. Ertak xalq turmushi, urinishi, mehnati, yuksak ideallariga maskanligi, xullas, xalq hayotining barcha jabhalari bilan uzviy bog'langanligi bilan ham g'oyatda e'tiborlidir. Zero, ertaklar hech vaqt bekorchi, ermak narsalar bo'lmay, ular hamma vaqt zo'r ijtimoiy va tarixiy ahamiyatga egadir. Bahaybat maxluqlar haqida hikoya qiluvchi ertak va afsonalarda u yoki bu davrning ijtimoiy, hayotiy kurashlari, xalq manfaatlari o'zining badiiy ifodasini topgan. Ana shu buloq singari jo'shqin, ummondek tubsiz, bebaho xazina bo'lmish ertak o'zining g'oyaviy mazmuni, badiiy qudrati bilan hamisha mehnat ahlini o'ziga maftun etib kelgan.

Ertakning muhim xususiyatlaridan biri uning har doim xalq hayoti, kurashi, tarixi, psixologiyasi, dunyoqarashi, urfodatlarini bilan juda yaqin bog'langan bo'lishi, insonlarga axloqiy va ma'naviy yo'ldosh bo'lib kelishidir. Ertak — insonning ma'naviy va jismoniy kuchiga ishonch ruhi bilan to'lib-toshgan. U insonga butun real va tabiatdan tashqari kuchlarning bo'ysunganini ifodalaydi. Ertaklarda inson tabiat va ijtimoiy hayotda o'ziga dushman bo'lgan kuchlarga qarshi kurashda doimo g'olib chiqadi. Xalq o'z ertaklarida badiiy obrazlar orqali o'z dunyoqarashi, axloq normalari va boshqa ijtimoiy masalalarni o'rta qo'ygan va o'zicha hal etgan. Bu fikrlar, intilishlar, orzu-havaslar ommaning didiga, ruhiga yaqin obrazlar orqali ravon, jonli tilda yetkazib berilgan. Ertaklar sodda va tushunarli bo'lgani uchun katta va kichikka, savodli va savodsiz kishiga tez yetib boradi. Ular orqali insonning ijtimoiy axloq normalari ham shakllanadi. Ba'zan bu axloqiy normalar masal tarzida, allegorik ravishda ifodalanib kelgan. Bu hol, ayniqsa, hayvonlar haqidagi ertaklarda aks etgan.

Xalqning kelajakka ishonchi, adolatning adolatsizlik ustidan g'alabasi, yorug'likning zulmatni yengishi, ozod va baxtiyor hayotga ergashish kabi g'oyalar ertaklarda yorqin obrazlar orqali tasvirlangan. Xalq ertaklaridagi bu

motivlar g'oyaviyemotsional ta'sirni kuchaytiradi, mehnatkashlarning zulmkorlarga qarshi nafrat-g'azabini oshiradi va xalq ma'naviy hayotining ajralmas qismini tashkil etadi.

Xalq dahosi bilan yaratilgan ertaklar yosh avlodning tarbiyasiga kuchli ta'sir qiladi va ma'naviy hissiyotni uyg'otadi. Ertaklar insonni o'z kuchi, o'z huquqi, o'z ozodligini anglatishi, undagi mardlik va vatanga muhabbat tuyg'ularini uyg'otishi bilan ham ma'naviy oziq berib kelgan. Xalq ertaklari el-yurti ko'z qorachig'iday avaylab-asraguvchi ajoyib vatanparvar qahramonlarni ulug'ladi; ayollarning haq-huquqini himoya qildi; osmonda uchishni, oyga yetishni orzu qildi, „Oynayi jahon“lari orqali yer yuzida bo'layotgan voqealarni bilib turdi, uzoqni yaqin qildi; „Ochildasturxon“lari bilan noz-u ne'matlar yaratdi; kishilar xarakteridagi yaramas odatlarni, noma'lum, noma'qul hislatlarni tanqid ostiga oldi; mardlik, epchilik, dovyuraklik, mehnatsevarlik, halollik, vafodorlik, to'g'rilik, saxiylik g'oyalarini ilgari surdi, ulug'ladi. Safarga otlangan botirning bir siqim tuproqni o'zi bilan birga olib ketganligini hikoya qiluvchi ertakni eslang. Ana shu bir siqim vatan tuprog'i o'z g'alar yurtida unga kuch-quvvat ato etadi, yaralanganda dardiga malham bo'ladi, maqsadga yetishida madad beradi.

Ana shunday xalq prozasi — ertakda, ayniqsa, romantik tasvir kuchli bo'ladi. Unda qahramon jabr-jaf o chekadi. Lekin oxiri baxtiyor bo'ladi, tengsiz jangda, kurashda g'olib chiqadi. Bunda romantik yechim — xotima xalqning idealidan, uning orzu-umididan kelib chiqadi. Busiz mumkin emas, ertak xalqning o'z kuch-qudratini anglab olishga madad berishi, uni baxtiyor kelajakka tomon ilhomlantirishi, kurashga chorlashi va shu kurashning (abstrakt bo'lsa-da) g'alabasiga ishonitirishi kerak. Bunday optimistik yo'nalish turli ertaklar (hayvonlarhaqidagi ertaklarda ham, sehrli-afsonaviy ertaklarda ham, ijtimoiy-maishiy ertaklarda ham, hayotiy ertaklarda ham)da u furib turadi. Misol tariqasida „Kambag'al qiz“, „Podachining qizi“, „Zumrad va Qimmat“, „Ota vasiyati“, „Ko'k qo'chqor“, „Uch og'ayni botirlar“, „Kambag'al-qashshoq“, „Ahmadlar“

kabi ertaklarni olib ko‘raylik. Bunday ertaklarda mehnatkash xalqning mung va zori, qayg‘u va hasrati ham, quvonchi va baxtli, shod va erkin kunlarga intilishlari ham o‘z ifodasini topgan, yaxshi yashash haqidagi ezgu niyat, orzu-umidi aks etgan. O‘tmishda qashshoq yashagan, og‘ir mehnatdan tinkamadori qurigan, och-yupun, bir parcha nonga zor bo‘lgan kishilar farovon turmush, yaxshi kunlar haqida orzu istaklarini o‘z og‘zaki ijodlari orqali bayon qilganlar. Mehnatkash xalqning turmush sharoitini yaxshilashga qaratilgan bunday ertaklarning qahramonlari turli toifadagi kishilar: biri cho‘ri, biri ishsiz — qashshoq, biri podachi, biri ovchi — mergan. Lekin barchasining ham intilishi va niyati bir: yaxshi yashash, sevgilisi visoliga yetish, el-yurt xizmatiga kamarbasta bo‘lish — bu yo‘lda duch kelgan to‘siq va g‘ovlardan dovyuraklik va jasorat ko‘rsatib o‘tishdan iboratdir.

Ertak qahramonlari poklik, aql-zakovat, tadbirkorlik, qahramonlik bilan ish ko‘rganliklari uchun ham omadlari keladi, baxtli bo‘ladilar. Kichkintoy bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning hajmi qisqa, mazmuni sodda bo‘ladi. Avval eslatib o‘tganimizdek, bu yoshdagi bolalar hali olam nima ekanligini bilmaydilar. Shuning uchun ularga tavsiya etiladigan ertaklar tabiat, hayvonot olami, do‘stlik, mehnat ahli, jamoa, odob axloq to‘g‘risida bo‘lgani ma’qul.

Bu davr bolalariga „Chivinboy“, „Qizg‘anchiq it“, „Tuyaqush bilan qoplon“, „Maqtanchoq quyon“, „Rostgo‘y bola“, „Arilarning g‘azabi“, „O‘ulki bilan turna“, „Sholg‘om“, „Qumursqa“, „Kaptar sovg‘asi“ kabi ertaklarni o‘qib berish foydalidir. Bog‘cha tarbiyachilari va ota-onalar zimmasidagi eng muhim ishlardan biri kichkintoylarni mehnatga muhabbatruhida tarbiyalashdir. Bolani yoshligidan boshlab mehnatga o‘rgatish, kichkinaligidanoq unga bir yumush berib, ishga odatlantirish lozim. Unga buyuriladigan ish ahamiyatsiz, hatto „ish“ deyishga loyiq bo‘lmasa ham, uning natijasi muhimdir. Oqibatda bolada yoshligidan mehnatni sevish, uddaburonlik, tirishqoqlik kabi fazilatlar shakllana boradi. Bola bog‘chaga borganda hayotda mehnatsiz yashab

bo'lmashligini ma'lum darajada idrok etgani ma'qul. Bog'chada bajarishi kerak bo'lgan yumushlarni bolaning o'zi erkin ishlasin, xatolari uchun o'zini javobgar sezsin. Yosh qalb o'zi bajarayotgan ishning natijasini anglasin, fikr yuritishga, to'g'ri ishlashga, g'ayrat qilishga ko'nixsin. Ammo bolada bunday malakalar birdan hosil bo'lmaydi, balki asta-sekin yuzaga keladi. To'g'ri tarbiyani juda erta, oiladan, bog'chadan boshlash kerak. Bolada mehnat malakasi vujudga kelsa, u ota-onasi, kattalarning ko'rsatib turishini kutib o'tirmay, o'zi eplab ketaveradi. Ishga o'rganish va o'rgatishda e'tibor beriladigan narsa — har ishni o'z vaqtida bajarishga odatlantirishdir. Ishga odatlanish ham, uni o'z vaqtida bajarish ham tarbiyada katta ahamiyatga ega. Har ish o'z vaqtida qilinmasa, ko'p yumushlar yig'ilib qoladi, yuzaki, sifatsiz, pala-partish bajariladi. Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarga o'qib, hikoya qilib beriladigan ertaklar juda muhimdir.

Shuning uchun har qanday ishni o'z vaqtida g'ayrat va matonat bilan ado etish lozim. Chunki dunyodagi barcha tirik mavjudot harakat qiladi, intiladi va shu tufayli hayotda zarur bo'lgan narsalarga yetishadi. Hatto arilar, chumolilar va qushlar ham tinimsiz mehnat qilib, yozdan boshlab qish g'amini yeydilar. Shu o'rinda xuddi inson kabi tinib-tinchimas, mehnatkash qumursqalar va ular haqida xalq to'qigan „Qumursqa“ ertagi

o'qib, hikoya qilib berilsa, samarasi yaxshi bo'ladi. Hayot shunday: kim tadbirkorlik bilan erinmay ko'p mehnat qilsa, sog'lom, boy-badavlat yashaydi, xor-zor bo'lmay umr kechiradi. Qumursqa maqtanchoq emas, u oddiy va sodda. Shu fazilatlar bilan ajralib turadi. Savol-javoblardamuz, bulut, quyosh, yomg'ir, yer, o't, mol, bo'ri, mergan-usichqon kabilardan ham qumursqa ustun chiqadi. Bu yoshdagi bolalarga tavsiya etiladigan ertaklarning asosiy qismini to'g'riso'zlik, halollik, birovlarini aldamaslik kabi g'oyalar ifodalangan asarlar tashkil etgani ma'qul. Masalan, turkman xalq ertagi „Rostgo'y bola“ni olib ko'raylik. Ertak qahramoni to'g'riso'zligi, kattalarning pand-nasihatlariga quloq solishi bilan yosh kitobxonda yaxshi taassurot qoldiradi. Rus xalq ertagi „Sholg'om“ bu davr bolalar kitobxonligida asosiy o'rinda turadi. Ertak juda

oddiy va sodda. Ammo uning ma'no va mazmuni, tarbiyaviy ahamiyati nihoyatda kuchli.

Ertakda boboning sholg'om ekishi va yirik sholg'omni ko'plashib tortib olish voqeasi tasvirlanadi. Ortiqcha tafsilotlar deyarli yo'q. Ammo unda kichkintoylarga ibrat bo'ladigan jihatlar ko'p. Ertakda boboning mehnatkashligi yaqqol ko'zga tashlanib turadi. Bobo kechasi-yu kunduzi sholg'omga ishlov beradi, ter to'kib mehnat qiladi. Demak, ertakda, eng avvalo, mehnatsevarlik ulug'lanadi.

Ikkinchidan, bola atrofida gilar bilan ahil, do'st bo'lib ulg'ayishi kerak. Kimki do'stlar bilan, jamoa bilan hamfikir, hamkor bo'lib o'ssa, o'ziga ham, o'zgalarga ham yaxshi. Ertakdagi kattakon sholg'omni yerdan tortib, sug'urib olish voqeasi yosh kitobxon uchun juda qiziqarli. Bobo, buvi, nabira, kuchuk, mushuk, sichqonlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilishadi. Bu holat bolalarga katta zavq beradi. Ertak kichkintoylarda kuch birlikda degan tushunchani shakllantirishga xizmat qiladi.

Ertakning uchinchi jihati shuki, u maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni tabiatni sevishtga, jonivorlarni asrash, avaylashga da'vat etadi. Kichkintoylar kuchuk, mushuk, hatto sichqonni ham boqish, asrash-avaylash lozim ekanligini chuqurroq his qiladilar. Bu yoshdagi bolalar hayvonlar o'rtasidagi o'zaro ahillik va do'stlik kabi xislatlarni bilishga juda qiziqadilar. Hayvonot olamida ham do'stga mehribonchilik, g'amxo'rlik mavjudligi, „Arslon bilan it“, „Echki, qo'y va bo'rilar“ kabi ertaklar orqali beriladi. „Tuyaqush bilan qoplon“ ertagida hayvonlar o'rtasida bir-birlariga yordam berish, ayniqsa, boshlariga kulfat tushganda yurakdan, samimiy ko'maklashish g'oyasi yotadi. Maktabgacha tarbiya muassalarida tarbiyachilar bunday g'oyalarni mashg'ulotlar o'tish orqali o'rgatishadi. Masalan. Mavzu: “Sholg'om” ertagini hikoya qilish

Maqsad: Bolalarni ertak kahramonlari bilan tanishtirish.

Vazifa: Bolalarda tarbiyachining nutqini tinglash va tushunish, berilgan savollarga tortinmasdan javob berish malakasini shakllantirish. " a " tovushini yakka holda talaffuz etishni mashk qildirish.

Kutalayotgan natijalar: Bolalar "SHolg'om" ertagini tarbiyachi bilan birgalikda saxnalashtirishga o'rganadilar.

Jihozlar;"SHolg'om" stol teatri.

Mashg'ulotning borishi: Tarbiyachi ertakni stol teatri orqali sahnalashtirib, bolalar bilan birgalikda 2 marta hikoya qiladi. So'ngra tarbiyachi ertak kahramonlarini tarqatadi va ertakni yana bir marta ko'rsatib berishni taklif qiladi. Uni o'zi boshlaydi, davomini bolalar aytishlariga imkoniyat yaratadi. (birinchi bola "Buvi nabirasini chaqiradi jumlasigacha, ikkinchisi "Nevarasi kuchukchani chaqiradi"jumlasigacha aytadi va h.k."). Tetiklashtiruvchi mashq.

Tarbiyachi: Hozir biz ham sholg'om ekamiz. (bolalar sholg'om ekadilar). SHolgomingiz katta bo'libdi. Ko'rsatinglar-chi! (Bolalar sekin oyoq uchida turib qo'llarini yuqoriga ko'taradilar, mashq bir necha marta o'ynaladi.).

Tarbiyachi: Bolalar, bobo, buvi, nevarasi sholg'omni yuvib, tozalab sholg'om sho'rva qilib ichishibdi. Kampir sholg'om sho'rvani ichganda "Mazali sholg'om ekan" deb maqtashibdi. Lekin kuchukcha, mushukcha, sichqoncha ularga qarab o'tirishibdi. Boboning nevarasi ularga boshqa ovqat olib kelibdi: kuchukchaga suyak, mushukchaga sut, sichqonchaga non bo'lish. Bolalar mushukchaga "Ol mushukcha, sut ich", kuchukchaga "Ol kuchukcha suyakni gaji", sichqonchaga "Ol , sichqoncha non bo'lagini e" deb birgalikda aytishadi.

Tarbiyachi bolalardan kim nima qilayotganini qaytarib so'raydi. Bolalar bobo, buvi, nevarasi sholg'om sho'rva, kuchukcha suyak, mushuk sut, sichqon non bo'lagini eganini aytishadi.

Tarbiyachi: Bolalar: " Og'zingizni oching va "a-a-a" deb ayting" deydi. Bolalar qaytarishadi. SHu tariqa bolalar "a"tovushyani yakka holda talaffuz qilishadi.

Bolalar bilimni aniqlovchi savollar.

Ertakning nomi nima edi?

Kim sholg'om ekibdi?

SHolg'omni kimlar tortdi?

Bu ertakni o'rgatishdan maqsad bolalarda badiiy adabiyotga bo'lgan qiziqishlarini uyg'otish va tovushlarni to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.Ushbu

ishda bolalarga ertaklarni o'rgatishni yana bir usulini mashg'ulotlar ishlanmasini ko'rib o'tamiz.

Mashg'ulot;

Mavzu: «Bo'ri bilan echki» o'zbek xalq ertagini tarbiyachi bilan birgalikda qayta hikoya qilishga o'rgatishga.

Maqsad: Bolalarni tanish adabiy asar («Bo'ri bilan echki» o'zbek xalq ertagi)ni tarbiyachi bilan birgalikda qayta hikoya qilishga o'rgatish.

Vazifalar:

“A” tovushni to'g'ri talaffuzini aniqlash va uni so'z va so'z birikmalarida to'g'ri talaffuz qilishga o'rgatish.

Kutilayotgan natijalar:

Bolalar «Bo'ri bilan echki» o'zbek xalq ertagini tarbiyachi bilan birgalikda qayta hikoya qilishga o'rganadilar.

“A” tovushi (so'zlarda, so'z birikmalarida) to'g'ri talaffuz qilishga o'rganadilar.

Kerakli jihozlar:

“A” tovushi bor suratlar, shirma uycha, o'yinchoqlar, ot-toychoq, sichqon-sichqoncha, mushuk-mushukcha.

Ko'rgazmali qurollar: bo'ri, echki, g'oz o'yinchoqlari.

Mashg'ulotning borishi:

Tarbiyachi: Hozir, bolajonlar men sizga «Bo'ri bilan echki» ertagini aytib beraman,- deydi. Tarbiyachi o'yinchoqlardan foydalanib (sahnalashtirib) ertakni hikoya qiladi va «Ertak sizga yoqdimi? Hozir biz uni hammamiz birgalikda hikoya qilamiz. Men boshlayman, siz esa menga yordam berib, davom ettirasiz (umumiy va yakka-yakka javoblar)»-deydi.

Tarbiyachi: Bir kuni echki podadan...

Bolalar; ajralib chiqqan ekan.

Tarbiyachi: Seni eyman!

Bolalar: debdi bo'ri.

Tarbiyachi; Meni-ya?

Bolalar: ha, seni,

Tarbiyachi: Rahm qil.

Bolalar: Men juda ochman.

Tarbiyachi: Rahm qilmayman. Seni butunlay...

Bolalar: bir yamlab yutib yuboraman va h.k.-

Bolalar (bola) jumlani tugatganidan keyin, tarbiyachi o'sha o'yinchoqni qo'yadi va u bilan harakatlar bajaradi, keyin yana bir marta ertakni bolalar bilan birgalikda hikoya qiladi lekin o'yinchoqlardan foydalanmaydi.

O'yin mashqi. Tarbiyachi: Bolalar, hozir «Bo'ri va echki» o'yinini o'ynaymiz. Sizlar echkilar bo'lasiz. Men echkilar o'tlagani chikadilar, desam tarqalib, o'tni qidirasiz, topasiz eysiz. Men «Bo'ri» desam, joyingizga o'tirib olasiz, deydi. (O'yin 2-3 marta takrorlanadi).

Tarbiyachi qo'liga g'oz o'yinchog'ini oladi va qaranglar bu nima? Bu... (g'oz) Uning ismi (g'a-g'a), G'ozning ismi nima ekan? (umumiy va yakka-yakka javoblar), G'oz sizning oldingizga kelganidan xursand bo'lib, «g'aa-g'aa», «g'aa-g'aa» deb qo'shiq aytayapti. G'oz qanday qo'shiq aytdi? (bolalar javobi) Hozir g'ozning qo'shig'ini biz ham aytib ko'ramiz.(2-3 marta takrorlanadi).

Bolalar bilimini tekshirish va mustahkamlash uchun savollar:

Ertakning nomi nima ekan?

Echkining oldidan nima chiqib qoldi?

Bo'ri echkiga nima dedi?

Echki bo'riga nima dedi?

Bo'riga echkining qanday gapi ma'qul bo'libdi?

Echki nima qildi?

Bo'ri echkini eb qo'ydami?

G'oz qanday qo'shiq aytar ekan?

Yuqoridagilardan ko'rinadi-ki kichik yoshdagi bolalarni xalq og'zaki ijodini o'rgatishda ertaklarning ahamiyati juda katta ekanligini ko'rib o'tdik.

II BOB. MAKTABGACHA TARBIYA YOSHIDAGI BOLALAR ADABIYOTINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.

Ma’lumki, tarbiya jarayoni, ayniqsa, etti yoshgacha bo‘lgan bolalar tarbiyasi nihoyatda murakkabdir. Maktabgacha pedagogikasida bolalarni har tomonlama kamol toptirishda tarbiyaning asosiy xillari jismoniy tarbiya, aqliy tarbiya, ahloqiy tarbiya, mehnat tarbiyasi va estetik tarbiya ekanligi ilmiy asoslab berilgan. Alohida tizimni tashkil etuvchi bu tarbiya xillari bir-biri bilan uzviy bog‘langan tarzda amalga oshirilsagina ko‘zlangan maqsadga erishish mumkin.

Tarbiya xillari orasida estetik tarbiya «umumiy pedagogik jarayondan ajralib turmaydi. Estetik tarbiya bola hayotining ko‘pgina tomonlariga singib ketgan bolalarning axloqiy, aqliy, jismoniy rivojlanishi bilan uzviy bog‘lanadi.

Ilmiy-pedagogik adabiyotlarda «estetik tarbiya» tushunchasi bilan birga, badiiy tarbiya tushunchasi ham qo‘llanadi. Badiiy tarbiya deganda bolalarni san’at turlari – badiiy adabiyot, musiqa, tasviriy san’at, kino, teatr va boshqa san’at asarlari vositasi bilan tarbiyalash nazarda tutiladi.

Bog‘chalarda tarbiyalanayotgan bolalar, hali maktabga bormay turib, oqilona harakat qiladigan, tevarak-atrofnı mustaqil kuzatadigan, kattalar yumushiga qaratadigan, ravon so‘zlab, fikr yurita oladigan birmuncha bilim va malaka orttirgan bo‘ladi. Bolaning ana shunday darajaga etishishida, xususan, uning jismoniy, aqliy va ahloqiy kamolotida xalq, Vatan oldidagi burchni tushunishida, go‘zallikni xis qila olishida, xunuk narsalardan jirkanib, yomonlik va yovuzlikdan nafratlanishida ularga bog‘chada, oilada o‘rgatiladigan badiiy asarlar juda katta rol o‘ynaydi. SHuning uchun «Bolalar bog‘chasida ta’lim-tarbiya dasturi»da ularga mos tarzda yozilgan badiiy asarlarga katta o‘rin ajratilganligi bejiz emas.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun o‘zbek adiblari tomonidan yozilgan nasriy asarlarni turli muammolar asosida tahlil etib, bir necha yirik ilmiy asarlar yozish mumkin. Mazkur qo‘llanmani yaratishdan asosiy maqsad

maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, o'zbek adiblari tomonidan yaratilgan nasriy asarlar (asosan, ertak va hikoyalar)ni qiyosiy, tahlil etish, ularning g'oyaviy-badiiy xususiyatlarini, yozuvchilar mahorati va uslubini ko'rsatib berish, ilmiy jihatdan asoslashdir.

Adabiyotshunoslikda bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyati etarli darajada ishlanmagan. SHuning uchun bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat? Bolalarga qanday yozish kerak? Bolalar adabiyoti, umuman, kerakmi? Kabi muammoli savollar hamon adabiyotshunos, tanqidchi va yozuvchilar o'rtasida qizg'in munozaralarga sabab bo'lmoqda.

Biz shu o'rinda o'zbek adiblarining maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yaratilgan nasriy asarlarini tahlil etishga o'tishdan avval ana shu munozaralarga munosabat bildirish, bolalar adabiyotining eng asosiy o'ziga xos xususiyatlaridan biri – adreslilik haqidagi o'z qarashlarimizni bayon etishni lozim topdik.

Bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari haqida 20- va 30-yillarda ham munozaralardan yana biri 1971-1973 yillarda «Detskaya literatura» jurnali sahifalarida bo'lib o'tdi.

Bahs ishtirokchilari bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini ochishga harakat qildilar. Ularning bir guruhi bolalar adabiyotining o'ziga xos, xususiyatlarini avvalo bolalar yozuvchilarining kattalar yozuvchilaridan farqli qobiliyatida, ya'ni «bolalar yozuvchisi bo'lib tug'ilishi kerak» ligida (V.Belinskiy) deb bilib dunyoqarash masalasini birinchi o'ringa qo'yishsa, ikkinchi guruhdagilar bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatini muayyan asarlar va ularning badiiy shaklidan qidiradilar.

I.Motyashov bahs qatnashchilarining fikrlarini umumlashtirib bolalar yozuvchisi bolaning «fiziologik, ruhiy,, ijtimoiy tomonlarini to'liq o'rgangan bo'lishi bundan tashq-ari narsalarning bola ko'zi bilan ko'rishi, fikrlashi va his qilishi va ayni paytda bolalar yozuvchisining o'z o'quvchisiga nisbatan tutgan yo'li bo'lishi lozimligini uqtiradi. Bolalar yozuvchisi qaysi yoshdagilar uchun

yozishdan qat'iy nazar «o'zining yosh va o'quvchisi uchun muallim, murabbiy va pedagog bo'lib qolishi shartligini ta'kidlaydi.» Lekin, - deydi muallifiy – agar iste'dod bo'lmasa, bolalar dunyosini o'z shaxsiy dunyosiday his qilish qobiliyati bo'lmagan, hech qanday bilim, na yordam beraoladi va qo'tqaradi.

SHu tariqa munaqqid bolalar yozuvchisi qanday bo'lishi kerak, degan savolga javob bergach, bolalar adabiyotining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun nima ishlar qilish lozimligi haqida to'xtaladi va bolalar adabiyotining o'ziga xos asosiy qirralarini ochish uchun bolalar adabiyoti nazariyasini yozish kerakligini uqtiradi.

Darhaqiqat, shu kungacha bolalar adabiyoti nazariyasi xususida maxsus darslik va alohida tadqiqotlarning yaratilmaganligi bu sohada ish olib borayotganlar orasida har xil qaraka-qarshi fikrlar tug'dirmoqda. Nashr etilgan ishlarning nazariy saviyasi yuqori bo'lmasligiga olib kelmoqda.

Demak, hozirgi adabiyotshunosligimiz oldida turgan eng dolzarb vazifalardan biri bolalar adabiyoti nazariyasini yaratishdan iboratdir. Bu ishni bolalarning yosh xususiyati, bilim doirasi, ruhiyatini hisobga olmay amalga oshirish mumkin emas.

Ma'lumki, pedagoglar bolalarni yosh xususiyatiga ko'ra uch guruhga bo'ladilar:

1. Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar (2 yoshdan 7 yoshgacha)
2. Maktab yoshidagi kichik bolalar (7 yoshdan 11-12 yoshgacha)
3. O'rta va katta yoshdagi bolalar (13-14 yoshdan 15-17 yoshgacha).

Bolalar adabiyoti mutaxasislari ham ana shu yosh xususiyatlariga asosladilar. Gap maktab yoshiga to'lmagan bolalar adabiyoti haqida borganida Respublika xalq ta'limi vazirligi tomonidan tayyorlangan, Bolalar bog'chasida ta'lim-tarbiya dastruriga tayanish katta ilmiy-nazariy va amaliy natijalar berishi mumkin.

Tabiat ruxshunoslik , ta'lim –tarbiya sohalarida erishilgan yutuqlar asisda tuzilgan bu Dastur t yasli bog'chalarda bolalarda bolalarni jismaniy axloqiy

estetik tarbiyalash masalalari aniq tizim asosida guruhlarga bo'lib, amalga oshirilishi qo'rsatilgan.

Buk guruhlar quyidagilardan iborat

I Ilk yoshdagi bolalar guruhi

1. Ilk yoshdagi birinchi guruh (1 yoshgacha bo'lgan bolalar)
2. Ilk yoshdagi ikkinchi guruh (1 yoshdan 2 yoshgacha)

BU guruh o'z ichida yana ikkiga ajratiladi: a) 1 yoshdan 1,5 yoshgacha; b) 1,5 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar guruhi.

II Kichik yoshdagi bolalar guruhi . BU guruh ham ikkiga bo'linadi:

1. Birinchi kichik guruh (2 yoshdan 3- yoshgacha)
2. Ikkinchi kichik guruh (3 yoshdan 4 yoshgacha)

III O'rta yoshdagi guruh (4yoshdan 5 yoshgacha)

IV Katta guruh (5 yoshdan 6 yoshgacha)

V Maktabga tayyorlov guruh (6 yoshdan 7 yoshgacha)

Dasturda har bir guruhga mansub bolalarning yosh xususiyatlari, ruhiyati, o'ziga xos tabiati qiziqish doiralari ta'kidlab bo'lgan. Ana shu guruhlarga tavsiya etilayotgan adabiyotlarni o'rtanish jarayoni maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotini ham guruhlashtirishi zarurati tug'iladi. Buni ayrim olimlar ham qayd etdilar. Masalan, adabiyotshunos olis P. SHermuxammedov shunday yozadi: Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yozilgan asarlar o'ziga xosligi bilan alohida ajratib turadi.

Fikrmizcha , bu yoshdagi bolalarni ongli tushunchasi, dunyoqarashiga qo'ra shart ish ravishda ikki guruhga ajratilishi kerakka o'xshaydi. Birinchi guruhga ikki yoshdagi to'rt yoshgacha bo'lgan bolalarning ruxiy olishini ifoda qiluvchi asarlarni kiritishi mumkin.¹

Bizningcha muloqqid maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotini ikki guruhga to'g'ri ajratgan holda , 2 yoshgacha bo'lgan bolalarni bu guruhlarga qo'shmaydi, vaxolanki inson dunyoga kelgan oylardan boshlib, unga yoqimli

¹ Болалар боғчасида таълим –тарбия дастури. Тошкент 1988,

kuy alla va boshqa qo'shiqlar aytilsa u ruhan tinchlanadi, yig'idan to'xtab arom oladi.

Hatto bola 4-5 oylikdan boshlab ashula kuy tovushlariga hissiy javob qaytarishga harakt qila boshlaydi 9-10 oylikdan esa ana shu tasirlanishni ochiq namoyish qila boshlaydi (Qiqirlab kulish , chapak chalish, qo'lchalarini o'ynatish va hakoza)

Bog'cha Dasturida bolaga bir yoshidan boshlab, folklorga xos janrlar dagi asarlar (ovutmoqchi, ertak , erkalana qo'shiq va she'rlar) tavsiya etiladi.

Bir yarim yoshli sog'lom bolalar kichik-kichik ertaklarining qiziqish bilan tinglay boshlaydilar.

Agar adabiyotshunoslikda maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotni bolalar bog'chasi «Dasturidagi» besh guruh (bularning ba'zilar o'z ichida yana guruhlarga bo'lishgan) asosan tasnif qilinsa, masala maydalashib ketadi. Bu bolalar yozuvchilari va tadqiqotchilar ishni murakablashtirib, har xil chalkashliklarga olib kelishi mumkin. SHuninig uchun maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotni kuyidagicha guruhga ajratsak to'g'riroq bo'ladi:

1. Kichik guruh – 4 yoshgacha
2. Katta guruh 4-yoshdan 7 yoshgacha

Har bir guruhga mansub bolalar uchun so'zlab yoki o'qib beriladigan asarlar mazmuni , g'oyasi syujet, kompazitsiya va boshqa tomonlai bilan bir-biridan farq qiladi. Har bir yosh davrida bola o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'ladi.

Buni hisobga olmaslik mumkin emas. Masalan, yuqorida aytiganimizdek, bir yoshgacha bo'lgan bolalarga osoyishta ohangda aytiladigan qo'shiqlar ovutmachoq, erkalama va boshqalar tavsiya etiladi. Ikki yoshga qadam qo'yan boalar ni bir yoshlar bilan qiyoslab bo'lmaydi. CHunki ular nisbatan o'sgan . Ayniqsa, bolalardagi mustaqil yurish qo'nikmasi asosiy harakterlarning murakkabroq turlari uchun zamin bo'lib, bolalarning atrof-voqelik bilan o'zaro munosabatda bo'lish imkoniyatlarini kengaytiradi. (17) SHunga hamohang boladagi boshlang'ich diqqat tinglash tabiatini tarbiyalash

kichik-kichik badiiy asarlarni o'qib berish so'zlash imkoniyatini tug'ila boradi.

Uch yoshli bola esa yanada mustaqilroq bo'ladi. Bolaning idroki, xotirasi, nutqi tafakkuri rivojlana boshlaydi. Ular qisqa xikoya va ertaklarning tinglab tushunganlarini gapirib berish imkoniyatiga ega bo'la boshlaydilar. Ammo ularda ham diqqat borqaror bo'lmaydi.

To'rt yoshli bolalarning esa qiziquvchanligi keskin o'sadi. Ularda xodisalarning sodir bo'lishi sabablariga qiziqish ayniqsa kuchayib sabablar haqida savollar ustunlik qila boshlaydi. BU yoshgacha kelib nutqning rivojlanishida jiddiy o'zgarishlar yuz beradi. Lug'at boyligi ancha ortadi, tevarakatrof haqida fikr yuritishning oddiy turlari paydo bo'lib, ular endi ancha murakkab gaplarda o'z ifodasini topadi.

Besh yoshli bola idrokda tafakkurida yanadi jiddiroq o'zgarishlar sodir bo'ladi. Ko'p savollarga bolalar o'zari javob topishga urinadilar, ravon nutqni topishga urunadilar, nutqni faolsh egallab oladilar, estetik hissiyot va munosabatlar rivojlanadi. «ertak, ximoya va she'rlarning obrazm mazmunidan tasirlanish qobilyatini o'sadi.»

Olti yoshli bola o'z xatti-harakatining erkin boshqara oladi. Buning diqqatiga xotirasiga fikrlashga ta'sir qo'rsatadi. Diqqat birmuncha turg'un bo'lib g'oladi, ixtiyoriy eslab qolish qoblyati paydo bo'ladi. Nuqtadagi har tomonlama takomilshuv davomi etadi. Fikr bayon qilishi asta-sekin ancha ravon xususiyat kasb etadi boshlaydi.

Yetti yoshga etgan bolaning jismoniy va aqliy olish qobyati 4-5 yashar bolaning ish xajmiga nisbatan 2-2,5 barovar ortadi.

Olti ettik yoshlar bolalar bilim foaliyati murakkab shakl kasb etadi.

Idrok etish maqsadga yo'naltirilgan aniq va umumlashgan ijodiy xayot o'sgan bo'ladi.

Xullas bolalarning har bir yosh davridagi o'ziga xos xususiyatlarini qo'rib chiqib, shuni aniqlash mumkinki 4 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun tevarak atrofdagi hamma narsa yangilik bo'lishi tuyuladi Ularning fikricha

bir diqqatda chalg'ib ketadi, Diqqat idrok etish tafakkur xotira xayol kabi muhim ruxiy jarayonlari hali rivojlanilgan ilk bosqichlarni boshdan kechirayotganligi sababli ular uzoq vaqt o'tirib kattaroq asarlarni tinglay olmaydilar. Demak bu yoshdagi bolalarga tavchiya etiladigan barcha janrdagi asarlar qiziqarli ixcham bir syujetli oz persanajli g'oyat sodda va tushunarli bo'lishi kerak.

Ko'rdikki katta guruhdagi (4-7 yoshli) bolalarda mustaqil faoliyat nisbatan rivojlangan, diqqat barqarorlashga iroda xayol xotira ruxiy jarayonlar anchayin taraqqiy etgan bo'ladi. SHuning uchun badiiy asar tinglab o'tirgan bola orzimagan biror narsa uni chalg'ib ketmaydi. Unda ixtiyoriy diqqat vujudga keladi. Demak , bola o'zi qiziqqan ish bilan muhim o'tirib shug'ulana oladi. Bolalar ruxiyati bilan maxsus shug'ullangan M. Vohidov bolalardagi ixtiyoriy diqqat ixtiyorsiz diqqatga nisbatan uzoq davom etadigan diqqat turi bo'lib, u zo'r berishi, ya'ni irodaviy kuch sarf qilishi talab etadi.¹

Demak irodaviy kuch sarf qilib biror janrdagi asarnei tinglab o'tirgan bolalarcharchaganidan so'ngina chalg'ib ketadi. SHuning uchun bu guruh bolalariga bir yoki ikki syujetli ixcham sodda asarlar tavisya etiladi. Kattaroq hajmdagi asarlar esa qismlarga bo'lib o'qib beriladi.

Tabiiyki , maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotida qiziqarlik soddalik aniqlik syujet kompozitsiya obrazlik nuqtalik o'ziga xoslik, tip badiiy nutq va uning sirlari kabi o'ziga xos xususiyatlar bor. Biz bular haqida o'rni kelganda to'xtalib fiklarni asoslashga intilishimiz to'qima uydurma , xayoliy tushda bo'lishi va voqealarning an'anaga aylangan ifodalar (boshlansa tugallanma) bilan tasvirlash , bo'rtirishg (mubolag'a) kabi usullarnin yo'l qo'llanishi va boshqalar maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ertagiga ham xos xususiyatlardir. Lekin bu xususiyatlar, ifoda usullari tasvir ifoda vositalarga maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar ertaklarida boshqacha qo'llanadi. Bulardan tashqari, kichkintoylar ertak o'z g'oyalari, qahramonlari

¹ Вошидов М. Болалар психологияси Тошкент 1982 й 128 бет

syujet va kompazion qo‘rinish obraz va xarakter yaratish usullar tili va boshqa va urta yoshdagi maktab o‘quvchilariga bog‘ishlangshan ertaklardan emas, hatto bog‘chadagi yosh xususiyatlariga qo‘ra bo‘lingan bolalar guruhlari nuqtai nazardan ham farq qiladi. BU xil o‘ziga xoslik maktabgacha yoshdagi bolalar uchun maxsus yozilgan adobiy ertaklardan ham mavjud.

Maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotining har ikkala guruhi (to‘rt yoshgacha va to‘rt yoshdan etti yoshgacha) uchun o‘qib beriladigan asarning umumiy xissiyatlaridan biri syujetning nihoyat darajada qiziqarli bo‘lidir. Darxaqiqat shunday asargina bola diqqatini o‘ziga jalb etadi. S. Mamajonov buni xaqida quyidagicha fikr bildiradi: Kichkintoylarga bag‘ishlanadigan asarlar syujetning muhim xususiyatlaridan biri uning o‘quvchi diqqatini tutib turuvchi qiziquvchanligidir. CHindan ham badiiy asarlarning yayujeti qiziqarli bo‘lsagina u o‘z vazifasini to‘la bajarishi mumkin. L. Tolstoy aytganidek kitobxonni zerikarli voqealar tasviri orqali dunyoni bilib olishga majbur qilib bo‘lmaydi¹

Xo‘sh qanday asar maktabgacha yoshdagi bolalar uchun qiziqarli bo‘lid? Bu savol V.M Feyavskaya quyidagicha javob beradi: Butunlay yangi narsani bolani qiziqтира olmaydi, shunigdek birorta yangilik bermaydigan hikoya ham bor, Bolaning ilgari o‘z tajribasi uning yangi hikoya tushunishga yordam berish kerak. SHuning uchun hikoyachi bolaga tanish bo‘lgan narsadan kelib chiqish va yangilik shunday berish kerakki, u eski narsalar asosiga qo‘rrishi lozim.²

¹ Мамажонов С.

²

2.1. Kichkintoy ertagida g'oyani talqin etishning o'ziga xosligi

Ertakka qiziqmaydigan ularda aks etgan g'aroyib ajoyib va sehrli olamga maftun bo'lmagan bolani topib bo'lmasa kerak. Ertak o'zining jozibali ko'chi bilan bolani jalb etoadi uning vatan va xalqqa sadoqatli, dovyurak, mehnatsevar, kattalarni hurmat qiladigan kichiklarga mehribon, halol va pok vijdonli inson bo'lib shakllanishida g'oyat muhim tarbiyaviy rol o'ynaydigan ertaklarni ko'plab yaratgan.

Keyinchalik, yozma adabiyot vujudga kelgach, jahonning taniqli adiblari, jumladan, o'zbek yozuvchilari ham kichkintoylarning ma'naviy olamini boyituvchi ertaklar yarata boshlaganlar va hozir ham yaratmoqdalar. YUqorida ta'kidlaganimizdek, maktabgacha yoshdagi bolalar ertagining o'ziga xos xususiyatlari ularning g'oyaviy tarbiyaviy, ahamiyati deyarli o'rganilmay kelinayotgan sohadir. Biz shuni nazarda tutib, mazkur bobda maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan xalq ertaklari va adabiyo ertaklarining tabiati, ularda xilma-xil g'oyalarning o'ziga xos aks etishi, ifoda usullari va pedagogik-tarbiyaviy ahamiyati xususida fikr yuritami

Ertak aslida xalq og'zaki ijodining eng qadimgi va eng taraqqiy etgan janrlaridan biridir. Ertakshunos olimlarimizdan biri. K.Imomov yozganidek, «Ertaklar hayot, haqiqatini hayoliy va hayotiy uydirmalar asosida tasvirlanganligi, tilsim va sehr vositalariga asoslanishi, voqea-harakatlarning ajoyib-g'aroyib holatlarda kechishini, qahramonlarning g'ayri tabiiy jasorati bilan folklorning boshqa janrlaridan farq qiladi». Bu farqlar, umuman ertakka xos xususiyatlar folklorshunos olimlarning ko'p tadqiqotlarida tahlil etilgan.

Albatta, ertak janriga xos bo'lgan asosiy belgilar – asar syujetiga asos bo'lgan voqealarning

Haqiqatan ham bolalar ifodali qilib o'qib berilayotgan asarni tinglayotganlarida bevosita o'zlarining shaxsiy hayot tajribalariga tayanadilar. Asar mazmunini o'zlari ko'rgan va bilgan narsalar asosida tasavvur qiladilar.

Asar syujetidagi bolalar koʻrmagan va bilmagan voqea narsalar esa ularning tasavvurini boyitadi, ongini oʻstiradi.

Masalan, «Qizqʻanchik it» degan oʻzbek xalq ertagi syujetiga eʼtibor qilaylik, ertak mazmuniga singdirilgan ochkoʻzlik va qizgʻanchilikning yomon oqibatlari bir it obrazi orqali qiziqarli usulda ochib berilgan.

SHubhasiz bolalar itlarni bilishadi. Itlarning suyakni yaxshi koʻroishlari ham bolalarning koʻpchiligiga maʼlum, albatta. Lekin itlar orasida qizgʻanchiq va ochkoʻzlari ham borligi ular uchun yangilik. Ertakdagi ana shu tanish va notanish jihatlar bolalar diqqatini oʻziga jalb etadi. SHuning uchun ular ertak voqeasini qiziqib tinglar ekanlar, undagi personajning harakatini «yomon» yoki «yaxshi» deb baholaydilar.

SHunday ertaklar qatoriga «Boʻri bilan echki», «Maqtanchoq quyon», «Qizgʻanchiq it», «Ikki echki», «Farosatsiz eshak», «Fil bilan xoʻroz» kabi oʻzbek xalq ertaklari «Toʻp», «Batinka haqida ertak» (M.Murodov), «Mehnat teri» (A.Irisov), «Suv bolalari» (S.Saydullaev) va boshqa adabiy ertaklar kiradi.

Bu ertaklar shaklining ixchamligi kam personajliligi tilining sodda va tushunarlilik jihatdan kichik guruh bolalari ruhiga mos keladi.

«Farosatsiz eshak» nomli oʻzbek xalq ertagi engil yumorga yoʻgʻrilgan. Unda bolalar koʻrgan, biladigan narsalar (qovoq, olma, shak va chumchuq va hali bilib ulgurmagan mohiyatigat tushunib etmagan narsa, hodisalar (qovoqning ingichka palakda oʻsishi, agar olmalar qovoqdek, qovoqlar olmadek boʻlsa nima boʻlishi) bor. Ertakda bola uchun yangilik boʻlgan narsa taʼsirli usulda ifoda etilgan. Eshak nozik palakda oʻsayotgan qovoqlarni va katta daraxtning bola mushtumidan ham kichkin mevalarini koʻrib tabiatning ishlaridan norozi boʻladi. Ertakning ikkinchi qahramoni –chumchuq eshakning tabiatdan norozilishi toʻgʻri emasligini tushuntirishga intiladi. Lekin eshak oʻz fikrida qoladi. Masala qanday hal boʻlarkin.

Bolani shu savol qiziqtiradi. Ertakning kichik guruhdagi bolalarga mosligi shundaki, asar tuguni voqeani aniq tasvirlash orqali echiladi. «Eshak olma daraxtiga surkalgan ekan, bitta olma uzilib taq etib boshiga tushibdi» «Voy

boshim»lab qolgan eshak faqat shundagina, chumchuqning «yaxshiyamki olma qovoqday emas» degan gaplari to'g'riligiga ishonadi. Ertakni qiziqish bilan tinglab o'tirgan bolalar bu echimdan qanoat hosil qilishadi. Negaki, ular bu tasvirni bemalol ko'z oldilariga keltira oladilar. VOqeaga singdirilgan yumor mohiyatiga ham tushunib, eshakning farosatsizligidan mazza qilib kuladilar.

«Fil bilan xo'roz» ertagi ham xuddi «Farosatsiz eshak» singari hajviy ruhda yozilgan.

Yuqoridagi ertakda eshakning farosatvizligi ustidan kulinsa, bu ertakda filning sodda va go'lligi tinglovchini kuldiradi.

Fil obrazi xuddi quyon, tulki, xo'roz, bo'ri va hokazo obrazlar singari maktabgacha yoshdagi bolalarga yaxshi tanish. Demak fil, xo'roz, uning hammayoqni titib cho'qib don terib eyishini bolalar biladigan narsalar qatoriga qo'shsak, filning yashash tarzi (to'yib ovqat eb so'ng uxlashi) ularning bilmaydigan qatoriga, yoki xo'rozning tinmasdan ertadan kechgacha er titkilab donlashini bolalar e'tibor bermagan narsalari qatoriga kiritish mumkin.

Ana shu ma'lum va noma'lum narsalarning omuxta tarzda berilishi voqeaning bola ko'z o'ngida to'liq namoyon bo'lishiga ko'mak beradi. Ertak syujeti nihoyatda qiziqarli bayon etilgan. Fil bilan xo'roz kim ko'p ovqat eyishda musobaqa o'ynashadi. Ana shu favqulodda topilgan voqea bolalarning qimziqishini yanada orttiradi. Negaki, ikki ishtirokchining tashqi ko'rinishiyoq bu musobaqada kim g'olib chiqishini oldindan aytib turibdi. Lekin xalq ertaklarida buzilmas bir qonuniyat bor. Kimki qahramonlik ko'rsatsa tashqi ko'rimnishi qanday bo'lishidan qat'iy nazar muvaffaqiyat qozonadi, g'olib isoblanadi. Tahlil qilinayotgan ertakka shu nuqtai nazardan e'tibor berilsa, bunday musobaqaga rozi bo'lish fil uchun go'llik, ahmoqona soddalik bo'lsa, xo'roz uchun chinakam qahramonlik hisoblanadi.

Albatta, ertakda xo'roz muvaffaqiyatga osonlik bilan erishmaydi, U tinmay harakat qiladi fil bo'lsa, xo'rozga nisbatan o'n barovar ko'p ovqat esada, uyquchanligi tufayli musobaqada engiladi.

Tinglovchi – bolalar yumorga yo‘g‘rilgan bu ertakdan zavqlanish bilan birga, undan o‘zlariga kerakli tarbiyaviy tomonlarni ham oladilar.

Hayvonlar haqidagi ertaklarga xos yana bir muhim xususiyat haqida qisqacha to‘xtalib o‘tmoqchimiz. Bu ertakda ishtirok etadigan personajlarning faqat bir xislati ustidan fikr yuritilishi orqali uning obrazini yaratiga erishishdir. Ko‘pincha ertak qahramoniga oid bu xususiyat ayrim bolalar tabiatida ham mavjud bo‘ladi. Masalan qaysarlik qoralangan «Ikki echki», o‘zboshimchalik fosh etilgan «Uch tulki», maqtanchoqning kulgiga qolishi ko‘rsatilgan «Maqtanchoq quyon» urishqoqlik, qizg‘anchilikning yomon oqibatlar keltirishi tasvirlangan «Qizg‘anchiq it» va boshqa o‘zbek xalq ertaklari shu xil asarlarning yaxshi namunalaridir.

Mazkur ertaklarda bolalar tabiatida uchraydigan salbiy xususiyatlar turli hayvonlar obrazi vositasida, jdonli sodda usulda ochib berilgan. Masalan «Ikki echki» ertagi ikki qaysar echki bo‘lgan ekan degan soddagina xabardan boshlanadi. Ana shu xabarning o‘ziyoq tinglovchi bolaning butun diqqat e‘tiborini o‘ziga jalbyu etadi. Kichkintoyga ertakda echki ishtirok etishining o‘ziyoq qiziq tuyuladi. Buning ustiga ular ikkita ikkovi ham qaysar. Ularning taqdiridan xabardor bo‘lish, shubhasiz bolalar uchun juda qiziqarli bo‘ladi.

Ertakda birorta ortiqcha jumla yo‘q. Voqea iplari bir-biriga mustahkam bog‘langan. Syujet tez rivojlanadi. Echkilar anhor ustidagi yakka cho‘p ko‘prik ustida uchrashib qolishadi. Tanlangan joy juda o‘rinli. Chunki ana shu «yakka cho‘p» ustida ularning tabiatidagi qusur -qaysarlikni butunicha bolaga ko‘rsatish imkoni bor. «Ikkisidan biri yo‘l berishi kerak ekan». Ikki echki o‘rtasida keskin to‘qnashuv boshlanadi. Echkilar bir-birlariga yo‘l berishni sira istamaydilar. VOqea avj nug‘qtaga etadi. Echkilar achchig‘lashib suzishib ketishadi. Qaysarlik ularning aqlini shu darajada ko‘r qilib qo‘yadiki, natijada ikkalasi uch qadamdan orqaga qaytib bir birlariga hamla qilishadi. «Ikki echki yumaloq yostiq bo‘lib anhorga ag‘darilib ketibdi». Ertakdagi ziddiyat ana shunday hal bo‘ladi. Echkilar qilmishlariga yarasha jazolanadi.

Albatta, kattalar nazarida bu unchalik qattiq jazo emas. Ammo urishayotgan echkilar holatidan asablari tarang tortilgan tinglovchi – bolalarning nazarida bunday zo‘r jazo bo‘lishi mumkin emas.

Ertak syujetiga singdirilgan qaysarlik hech kimga foyda keltirmaydi, u aqlsizlikning xunuk bir ko‘rinishidir, degan g‘oya bola ongiga hech qanday pand-nasihatsiz aniq voqeaning badiiy tasviri orqali etib boradi.

Adabiy ertaklar xalq ertaklarining asrlar osha shakllanib kelgan qonun qoidalariga bo‘ysunadi. Ular orasidagi asosiy farq shundaki, adabiy ertaklarda zamonaviy mavzular, fan-texnika sohasida erishilga yutuqlar fizkultura va sportning ahamiyati va boshqalar badiiy talqin etiladi. Adabiy ertaklarda xalq ertaklarining shakl unsurlari, ayniqsa, tashxis va intoq (gapirtirish) san’ati nihoyatda ko‘p qo‘llanilgan. Masalan

T. G‘oibovning «Makjo‘xori» «Tovus va hakka» «xovliqqan ilon» A. Abdurazzoqning alazarak Ayyorning jazosi S. G‘ofurovning «Gaz- xunarang oz» G‘. Tolibning Kechikkan lala va bboshqa ertaklarida xuddi shu san’atdan foydalanib har xil g‘oyalar ifoda etilgan.

Ayyorning jazosi ertagida porrandalar bog‘bon chol yordamida birlashib ayyor Tulkini jazolashga erishdilar. Bu ertaklarning ijtimoiy-tarbiyaviy ahamiyati shundaki ular mazmuniga odamlar yovuzlikka qarshi birlashib do‘stlashib qurashishsa albatta g‘alab qiladilar degan g‘ochya singdirilgan.

M. Murodovning Qo‘prik ertragi persanaji xayvon va parrandalar Qilizilishton Ayiq, Fil , SHer G‘oz , O‘rdak, Bulbul, Laylak va oshqalar birlishiyu ter to‘rib mehnat qiladilar, ikki qirg‘oqni tutashtiriruvchi ajoyib qo‘prik kuradilar.

Asar ana shu qizg‘in mehnat jarayonida vujudga kelgan ahillik mehnatsevarlik do‘stilik ulug‘nadi, dangasalik, tayyorga ayyor o‘lishi qaraladi. Unda miqyosning hamma joyda qurunga uchrashi doima izza bo‘lib yurish tanoz Tulki timsoli orqali qo‘rsatiladi.

Hayvonlar haqidagi bo‘ri ertaklari mavzuda ilmiy tadqiqot ishi olib borgan S.S. Bardaxonovanning yozishicha xayvonlar qushlar va baliqlar o‘ylashadi, fikrlashadi, aql bilan baholashadi, donishmandlik bilan o‘z xulq atvorini boshqarishadi. Lekin ular qanchalik odamlashtirmaslik, baribir xayvonot dunyosi uchun xos bo‘lgan xususiyatlar ularda ham yuksalinmaygan bo‘ladi. Ertakchilar xayvonlardagi ana shu tabiiy xususiyatlarni topishda va har xil odamlarning tiplarini yaratishda ulardan foydalaniladi.

Bu fikrning to‘g‘riligini o‘zbek yozuvchilarining maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan ertaklar ham tasdiqlaydi Masadan «Qo‘prik ertagi syujetning» to‘xta va ishonarli chiqishiga asosiy sabablardan biri unda ishtirok etayotgan har bir persanaj qanchalik odamlashtirilmaase baribir ularning zimmasiga bevosita o‘zi bajarishi mumkin bo‘lgan ishning yuklanilishanligidir. Arkakli kunduzlar ulkan daraxtlarni yiqitishadi. Darxaqiqat qunduzdlar o‘tkir tinlari biln darxaqiqat g‘ajib qulog‘iga oladi. Yoki fillar xartumi yordamida xodalarni tashib tushirishadi. Qizilishton esa xodalarga teshik uyadi degan gaplar ham rost gaplar. Hayvonlar va parandalarning xayotida bajara oladigan ishlarining ertakda mahorat bilan qo‘rsatishi undan reallikning olishi va syujetning ishonarli, qiziqarli chiqishiga asos bo‘lgan.

Yosh avlodni o‘z shaxsiy manfaatidan xalq manfaatidan ustun qo‘ymaslik har xil jirkanch yo‘lar bilan mol dunyo yuboylik ortirishga intilmaslik ruhida tarbiyalash pedagogika va bolalar adabiyotining muhim vazifalaidan biridir.

SHu jihatdan A. Abdurazzoqing Olazarak ertagi alohida ajralib turadi

Unda sirti yaltiroq ichi qaltiroq Zag‘izg‘on obrazi ustalik bilan yaratilgan. Zag‘izg‘onning baland daraxtga qo‘rilgan mustaxkam o‘yi bor uning uyi qishning jonidan boshqa hamma narsa bilan bezatilgan, Zag‘izg‘on boshqa kushlar uyini bilib qolsa o‘g‘irlikka tushadi deb doimo xovtirda olazarak bo‘lib yashaydi. Muallif Zag‘izg‘on obrazi orqali

nopoklik yo‘llar bilan boylik ortirib oddiy va kamtarinligiga yashayotganlarni mensimaydigan manman, maqtanchoq kimsalarni qo‘rsatadi.

Ertakda tekinxo‘rlik xudbinlik, mamagirlikning fojiali oqibatlari ishonarli qo‘rsatilgan.

«Maqtanchoq tilidan ilinadi» degan gapdek Zag‘izg‘on mushchaning uyasi masxara qila turib o‘zining ming yilad ham buzilmaydigan uyi borligi bilang keriladi. SHuni beixtiyor ochib qo‘yadi. Lekin Zag‘izg‘onning beqiyos boyliklar to‘la o‘yini qo‘o‘rgan Musicha va Gurrakning og‘izlari ochilib xavaslar kelmaydi. Aksinchav undan kattiq nafratlanib u o‘g‘irlikkada ayblashadi.. Zag‘zg‘onining shundan xabar topgan boshqa qushlar ham uni yomon qo‘rib qolishadi. Hatto Zag‘izg‘onining boyliklari o‘g‘irlanib o‘zi o‘ldirib ketilgandla ham birorta qush unga zarracha achinmaydi.

Kichkintoylar ertaklarni orasida tashxis va inoq san‘atidan foydalanib birorta xayvon yoki parranda hatto qo‘rt-kumusqalar o‘limliklarining badiiy tajriman xali yaratganlari ham uchraydi. Masalan M. G‘oyibonning makkajixori ertagida bola bir dona makkajo‘xori doninig sarguzashtning tinglash orqali uning dushmanlar bo‘lgan SHumg‘iya va Harom qo‘rtni bilib oladi. Tinglovchi doga yordam beramagan dangasa bola ustidan qulsa donga yordam berib, yaxshi ishlarni amalga oshirgan bolaga xavaosi keladi. Nihoyat bu bolalarning makkjo‘xorining xalq xo‘jaligidan ahamiyati , undan qand murabbo qandolat pechenilar nonlar, xolvadlar va bboshqqa eguliklar tayyorlashni, oziqa ekanligini bilib olishadi ajoyib rol o‘ynaydi.

Ya. Sa’dullaevning Yong‘oqdan ertagi kichkintoylar yaxshi biladigan yong‘oqning marjon-marjon tugunchaliri mag‘zi yoqqa etilguncha bo‘lgan davri maroli tasvirlangan

Buryat xalq ertagi Qor va quyuncha xamda R. Farxodiyning Yo‘l-yo‘l kamuzil quyosh ertagi bolalarni quyonlarning hayotida ro‘y berayoitgan qiziq hodisalar bilan tanishtirgandi. Har ikkala ertakda ham bir masala-quyonlarning bahorda tullashi ikki xil yo‘l bilan yoritilgan.

R. Farxodiy ertagida qiyimning har yili bir xil rangga almashtiraverib zerikib ketgan va tashqi qo‘rinishi butunlay boshqa rangga o‘zgartirgan quyonning sarguzashti qiziqarli voqealar orqali qo‘rsatiladi.

Xalq ertagida drammatik kayfiyat adabiy ertakda diqqatga sazovorki ikkala ertak yonma-yon qo‘yilsa g‘oyaviy jihatdan bir-birini to‘ldirali.

Xalq ertagidagi quyoncha turmush tajribasi nihoyatda rom kechikkay ekanligini uning o‘zini tutishda gap so‘zlarida aniq qo‘rinib turibdi.

Quyoncha obrazida kichkintoylar ruhiyati yorqin tasvirlangan. Masalan ertak syujetida quyoncha eriyotgn qorga juda achinadi, biroq undan ochishni xissida eng avvalo o‘z manfaatini eritadi. Lekin buni xudbinlikka taqab qo‘ysak mutloqo to‘g‘ri kelmaydi chunki hamma kichkintoylar kabi quyoncha ham tevara-atrofga o‘z shaxsiy manfaati nutqao nazarida qaraydi his qiladi. Buni tinglovchi –bolalar davrasi juda yaxshi tushunadi.

SHuning uchun ham quyonchaning qorga qarab, O‘rmon xo‘jayininig oldiga oldiga boraman iltimos qilaman azizim qor seni men uchun saqlab qolsin deyman kattalar uchun qulgi bo‘lsa , bolalar uchun o‘ta samimiy va tabiiy gap sifatida qabul qilinadi.

Kuzatishlarimiz ayrim yozuvchilar ertaklarida xalq ertaklarining shakl unsullarinigina emas, balki mazmun va g‘oyasini ham ijodiy davom ettirib, orginal asarlar yaratilishlarini tasdiqlaydi.

Masalan Qumursqa xalq ertagida tabiat dialektikasi qiziqarli syujet asosidla qo‘rsatilgan . Undash bosh qahramon tabiatdagi eng kuchli narsani bilish maqsadida muz quyosh bulut, yomg‘ir, yer o‘t va boshqalarga murojaaaat qiladi. SHu jarayonda tinglovchi tabiatidagi bir-biri bilan bog‘liq jarayon haqida qisqa tasavvurga ega bo‘ladi.

S. Saydullaev esa Suv bolalari ertagida tabiatdagi faqat bir jarayon-suvning aylanishini bolalarbop maroqli tarzda tasvilashga harakat qilgan.

U asarda anchayin murakkab hodisani bolalarga etkazishga intilgan. Buning uchun ertak janri imkoniyatlaridan to‘g‘ri foydalangan holda bolalar fe‘l-atvoridagi ba‘zi qiliqlarini ertak personajlari tabiatiga ko‘chirgan. Masalan,

bolalardagi issiqdan betoqatlanib, onasiga «aylantirib keling», deb xoli-joniga qoʻymaslik kabi xislat «suv bolalari»-yomgʻir, doʻl va qorda ham mavjudligini qayd etadi. Bunday yaqinlashtirish muallif niyatini amalga oshirishini hosil qilishini juda oddiy, ayni paytda haqiqatdan chekinmagan holda tasvirlaydi: «Bugʻlanib koʻkka yoʻl olgan suv bolalari osmonda rosa sayr qilib oʻynashgach, shamol yordamida bir joyga toʻplanishib, qattiq bulut togʻi hosil qilisharkan. Yomgʻir boʻlib Erga-onalari bagʻriga qaytisharkan».

Oʻ.Hoshimovning «Tomchi haqidagi ertak» asari ham suvning er va osmon oraligʻida toʻxtovsiz aylanib yurishini tasvirlagan. Oldingi ertakdan farqli ravishda bu ertak kichkintoylarni faqat erdagi suvning «oftob bola» taʼsirida bugʻlanib osmonga chiqishi, bulutga aylanishi, erga yomgʻir, qor boʻlib qaytib tushishi jarayonlari bilangina tanishtirib qolmay, oʻzaro doʻstlik gʻoyasini ham badiiy aks ettiradi.

Ertakdagi Tomchi sadoqatli doʻstning ramziy timsolidir. U doʻsti-Oʻrik daraxtining boshiga ogʻir kunlar tushganda unga sidqidildan yordam beradi. Tomchi issiq kunlardachanqaganidan yaproqlari shalpayib, «hushidan ketib qolgan» Oʻrik daraxtiga gʻamxoʻrlik qilib, oʻrtoqlari bilan birga uning chanqogʻini bostirishga yana «yayrab-yashnab ketishi»ga koʻmaklashsa, «aʼzoni-badani muzlayboshla»ganidan qorga aylanib, uning shoxlarini koʻrpadek oʻrab isitadi va sovuq urishidan asraydi.

Umuman, Tomchi «qaerda boʻlmasin, qiyin va zarur paytda doʻsti Oʻrikning yoniga etib kelarkan».¹ U doʻstining odamlarga meva berib, foyda keltirishda oʻzining ham hissasi borligidan quvonarkan.

Muallif ertagida tabiatda sodir boʻladigan har bir hodisaning oʻzaro bogʻliqligini, ikki doʻstning ramziy timsollari orqali tinglovchi-bola koʻz oʻngida namoyon qila olgan.

Xullas, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozilgan ertaklarda badiiy ifoda usullaridan foydalanib, tabiat hodisalarining badiiy obrazli berilishi kichkintoylar ongini oshiradi, tafakkur doirasini kengaytiradi. Bunday asarlar

¹ Ў.ОШИМОВ. Ялпиз сомса. Тшкент. 1983, 23-бет.

bolalarning tabiatni sevib undagi o'zgarishlarni qiziqib kuzatishlarida, ma'lum ko'nikmalar hosil qilishlarida muhim rol o'ynaydi.

M.Murodov ertak janri imkoniyatlaridan foydalanib, sportning ahamiyati haqida maroqli asar yaratdi. YOzuvchining «To'p» ertagi sarlavhasidan ko'rinib turibdiki, u bolalarning sevimli o'yinchog'i haqidadir. Ertak ixcham syujet asosida, yumoristik tarzda, sodda usulda yaratilgan. Unda ikki ishtirok etadi. Birinchisi-to'p. Muallif to'pning tashqi ko'rinishini shunday tasvirlaydi: «dumdumaloq, bir tomoni loladekqizil, bir tomoni gul bargiday yashil ekan. Unda qo'l ham, oyoq ham bo'lmagan ekan. SHunga qaramay to'p tinib-tinchimas ekan. Hali osmonga sakrar, hali erga tushar, hali tepaga sapchir, hali o'tloq maydonlarda yumalarkan».¹

Ko'rinib turibdiki muallif koptokning tashqi ko'rinishini, unga xos bo'lgan xususiyatlarni tasvirlashda xayotiylikdan chekinmagan va ayni apytida to'pning tashqi ko'rinishiga afsonaviy ruh bag'ishlagan.

Negaki, koptok o'zi mustaqil, ravishda osmonga sakramaydi yoki o'tloq maydonlarda yumalamaydi. Bular ertakona usul.

Ertakning ikkinchi qahramoni «tinib-tinchimas to'pdan keskin farq qiluvchi kam harakat, yalqov va xo'ppa semiz bola bo'lib, yozuvchi bu ikki obrazni qarishlantirish usuli bilan tasvirlangan. YAlqov bola o'z tabiatiga butunlay zid bo'lgan to'pni, o'zining irodasi qiyinchiliklardan qo'rqmasligi, boshlagan ishini oxiriga etkazmaguncha tinchimasligi tufayli boladagi dangasalikni, yalqovlikni engadi va u bilan do'st bo'lib uni «chaqqon, kuchli qilib» yuboradi». Demak adib sport bilan shug'allanishining ahammiyatini ertakka xos usulda ochib bo'lgan.

«Bolalar bilan eng jiddiy mavzulvarda ham hech qanday pand-nasihatsiz sodda va maroqli so'zlashuv mumkin».

(M.Gorkiy) lekin maktabgacha yoshdagi bolalar uchun «eng jiddiy mavzularda» etuk asar yozish ijodkordan katta mahorat talab qiladi. SHuning uchun katta bu xil asarlar nihoyatda kam yaratilmoqda.

¹ М.Муродов. Тъп.//. /унча. 1983.8-сон, 10-бет.

P.Muhammadyorovning «To‘ng‘ich o‘g‘il» nomli ertagi ana shunday asarlar jumlasiga kiradi. Muallifning qisman muvaffaqiyatga erishgan bu ertagida ilm-fan erishgan ulkan yutuqlardan biri-Erning birinchi sun‘iy yo‘ldoshi haqida bolalarga badiiy ma’lumot beriladi.

Ertak ixcham, sodda shaklda yozilgan. Undagi mazmunning murakkabligini hisobga olgan adiba yumordan unumli foydalangan. ertak personajlari Quyosh, Merkuriy, SHimol yulduzi, Zuxro yulduzi, Mars, Oy kabi osmon jismlari xuddi odamlardek ruhiy holatda bo‘lishadi, suhbatlashishadi. Ertakda, jahli chiqqan Quyoshning tashqi ko‘rinishini va Oyning holati shunday tasvirlanadi: «Hayajonda olov sochlari hurpayib, ko‘zlari ola-kula bo‘lib ketgan quyosh oxir uzun, nurli qo‘lini cho‘zib keksa Oyning biqiniga turti. Oy bo‘lsa mudrab ketayotgan ekan cho‘chib orqasiga qaradi.»²

Bunday aniq tasvirlar bola tasavvurida bemalol jonlanadi va u koinotdan jismlarni hayolan ko‘z oldiga keltira oladi.

Lekin muallif ayrim o‘rinlarda faktlar tahliliga berilib ketib, badiiylikni unutadi. Natijada ertak shu voqeani bolalarga aytish uchun yozilgan xabarnomaga o‘xshab qolgan.

Bog‘cha yoshidagi bolalar ertaklarning ba’zilarida an’anaviy boshlanma bor. Lekin u nihoyatda ixcham, qisqa shaklda qo‘llangan. Masalan, «Bir bor ekan, bir yo‘q ekan dakang xo‘roz bilan fil bor ekan» («Fil bilan xo‘roz»), «bir bor ekan, bir yo‘q ekan, quyon bor ekan» R.Farhodiy «Antenna quloqli quyon haqida». Bor ekan-da yo‘q ekan, qishloqning eng chekkasida bir nihol o‘sgan ekan. «(aSa’dullaeva, «Yong‘oqjon»)» va boshqalar.

Ertakning aynan voqeasining o‘zidan boshlanishi yoki qisqa boshlanadigan keyin tezda voqea bayoniga o‘tishini bola diqqatining chalg‘ib ketmasligi hayolida boshqa narsalarning gavgaldanmasligini ta’min etadi. Dabdurustdan bolaga: «bir echki podadan ajralgan ekan, oldidan och bo‘ri chiqib qolibdi», deb aytilishi, ya’ni voqea ertak avj nuqtasidan boshlanishi uning butundiqqatini bir

² П. Мушаммадёрва. Шарлар учди. –Тошкент, 1918, 46-47-бетлар.

erga to‘plab olishiga yordam beradi. Natijada unga ixtiyoriy diqqat tezda yuzaga keladi.

Adabiy ertaklar orasida an’anaviy boshlanma usuliga ijodiy o‘zgartirishlar kiritganlari ham uchraydi. Bu jihatdan shoir sifatida tanilgan A.Abdurazzoqning izlanishlari diqqatga sazovordir. Uning qalamiga mansub ertaklarning uziga xos boshlanmalari, ba’zan ularning she’riy yo‘lda berilganligi ravon va o‘ynoqiligi bolalar q-albini asar boshidayoq hayajonlantiradi. Masalan: «bor ekan, yo‘q ekan, och o‘zlar och ekan, sahiylar to‘q ekan. Tilla qo‘ng‘iz ko‘k ekan, chumoli qora ekan...» («Tilla qo‘ng‘iz bilan chumolilar») yoki:

Bir yo‘qekan, bir bor,
Bir ajoyib bog‘ bor ekan
SHu ajoyib bog‘ ichida
Ko‘p ajoyib sir bor ekan

(«Olazarak»).

Yana:

Bo ekanu yo‘q ekan
qo‘rqoq zoti xor ekan
Qo‘rqmay yurgan botirning
ko‘ngli doim to‘q ekan.

Kimki botir yigitdir
Unga o‘lim yo‘q ekan

(«Qirq og‘ayni botirlar»).

Ertak boshlanmasida ifoda etilgan botirlik va qo‘rqoqlik haqidagi bu fikr bizningcha shunchaki «boshlanma» emas. U ma’lum ma’noda eriproflik vazifasini ham o‘taydi chunki ertakda qo‘rqoqlarning xalq nafratiga uchrashi , mardlarning xalq qalbida mangu yashashi g‘oyasi aks etgan.

Ma'lumki, ertaklar hoh xalq ijodi bo'lsin, hoh adabiy ertak bo'lsin, salbiy qahramonlarning inqirozi ijobiy qahramonlarning g'alabasi bilan tugaydi.

Umuman ertaklarning eng go'zal xususiyatlaridan biri shundaki ularda hamma vaqt yaxshilik insoniylik, haqiqat, odob, ahloq, ezgu xis-tuyg'ular, omonlik, yolg'onchilik: odobsizlik, razillik, yovuzlikdan ustun keladi. Yaxshilar murodu maqsudiga erishadi, yomonlar esa jazosini olib, sharmanda-yu sharmisor bo'ladi. Bu xususiyat bog'cha yoshidagi bolalar ertaklarga ham xosdir Masalan, «Chol to'qmoqni to'xtatdi, o'zi yurtga hokim bo'ldi. Murodi maqsadiga etdi» («Ur to'qmoq») «bo'ri hushiga kelib qarasa, jag'i yirtilgan, hamma yog'i tinalgan, azoyi badani qaqashab og'irir ekan. Echkidan esa nom-nishon ham yo'q emish». («Bo'ri bilan echki»), «Qushlar aldanganlarini bilna hamono Hakkani cho'qib patlarini to'zitib, o'rmonlaridan haydab yuborishibdi. Hunarni puxta o'rganib, g'ayrat, vijdon bilan mehnat qiluvchi kamtarin Tovusxonim esa hamon hurmat va izzatda emish» («T, g'oibov, «Tovus va hakka»»).

Ertaklar orasida shunday ertaklar ham uchraydiiki, ularda tanlangan detal aytilmoqchi bo'lgan fikrga mutanosib kelmaydi. Masalan A.Abdurazzaqovning «semizlik» ertagida haddan tashqari ko'p ovqat eyish, semirib ketish qoralanadi. Lekin bu chap qo'ylarga nisbatan aytiladi.

Axir qo'yning ko'p ovqat eyishi semirishi bu tabiiy ham, uni egasi shuning uchun ham boqadi. Madomiki shunday ekan, bu obraz orqali ko'p ovqat eyish, semirib ketishni qoralash mumkinmi?

R.Tolibning «Tramvay va mashina» ertagidagi fikr yaxshi. Qiyinchilikdan qo'rqmay olg'a yurish, erkin bo'lish olqishlanadi. Lekin muallif bu fikrini ifodalash uchun tramvay misolini salbiy personaj qilib ko'rsatadi (chunki tramvay doim bir izdan yuradi). Natijada Tramvay hayotda bajaratgan vazifasi uchun aybdor bo'lib qolgan.

Bu kabi sun'iy yaratilgan obrazlar muallifning tiniq fikrini xiralashtiradi, bu esa asar g'oyasini bola qalbiga etib borishiga jiddiy to'sqinlik qiladi.

Ayrim ertaklarda bayonchilik kuchayib ketgan til masalasiga umuman e'tibor berilmagan. Masalan, M.Murodovning «Qaynar xumcha bilan mashinajon», «Hammaga ayon sir», B.Fayzievning «Gulzorda va oshqalar ana shunday asarlardandir».

«Gulzor»da ertagi mehnatsevarlikning ulug'lash, tekinxo'rlikni qoralash maqsadida yozilgan. B.Fayziev bu g'oya talqini uchun siyqasi chiqqan Asalari va Qovoqari ramziy obrazlarni tanlagan. Lekin asosiy gap bunda emas yozuvchining ertak syujetini quruq ta'sirsiz bayon etishida personajlarning mantiqsiz harakat qilishi va so'zlashidadir. Ertakning ijobi y qahramoni (Asalari) nutqidagi qaytariqlar, uzundan-uzoq va'zxonlik, qo'pol so'zlash monerasi bola qalbida unga nisbatan xayrixoxlik uyg'otmaydi. Mana Asalari bilan qovoqarining birinchi muloqotiga e'tibor beraylik:

-O'rtoqjon, nima qilyapsan, o'zing?

-Ishlayapman, bol yig'yapman, debdi Asalari.

-Boling judayam shirin bo'lsa kerak.

jon o'rtoq, mengayam bergin, tatib ko'ray-Qovoqari Asalarini aldamoqchi bo'libdi.

-Seni qara-ya, tekinxo'rsan-u, uyalmasdan meni o'rtoq deysan: sendan jirkanaman, menga yaqinlasha ko'rma!

O'zing ishlang bo'lmaydimi? Doim birovlarining tayyor ovqatiga xira pashshadek yapishganing-yapishgan. Tayyorga ayyorsanda! Ndi bir kaming meni asalim qolibdimi, sulloq!

Asalarining bergan javobi Qovoqarining «iltimosiga mantiqan butunlay teskari, eshituvchi bolalarning hayolida hozir Asalari Qovoqariga ham o'z kasbi-«gulning shakar changini yig'ishni» o'rgatib qo'ysa kerak degan fikr tug'iladi. Ertak voqeasi rivoji ham asalarining xuddi shunday yo'l tutishini taqozo etadi. Lekin yozuvchi Asalarining erkin harkat qilishiga to'sqinlik qilib o'z fikrlarini unga zo'rlab aytiradi. Buning natijasida esa ertak salbiy obrazi Qovoqari ijobiy obrazi Asalariga nisbatan kamtarin, odobli bo'libb chiqqan. Asardagi asalari

nutqi notabiiy gapdan iborat. badiiylikdan mahrum gaplar bilan bolalar qalbida mehnaga muhabbat, tekinxo‘rlikka nafrat tuyg‘ularini uyg‘otib bo‘lmaydi.

M.Gorkiy va CHingiz Aytmatov asarlaridan olingan parcha-ertaklar mazmuniga teran falsafiy ma’noalar singdirilgan. Ularda katta yoshli odamlarning insoniylmkdan yiroqlashgan kibru havoga, xudbinlikka beoilishi sabablari va ularning fojeali oqibatlari badiiy umulashtirilib, ochib ko‘rsatilgan. Bular bog‘cha bolalarining tushunish doirasidagi asalar emas. Tabiiyki, ular kichkintoylar uchun og‘irlik qiladi.

Xullsa, yozuvchilar kichkintoylar uchun asar yozayotganlarida bolalar dabiyotning uziga xos xusuksiyatlarini bilishlari shart. Busiz ular yaratgan asarlar, jumladan, ertaklar tarbiyaviy ahamiyat kasb etmaydi.

Kichkintoylar ertaklarida qo‘llanuvchi takror usuli va uning xillari.

Ertaklarda ayniqsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarda takror kp qo‘llanuvchi badiiy usullardan biridir.

Takror usullardagi murakkab voqea, hodisalarni ta’sirli ifoda etishda syujet chiziqlarini bir-biri bilan bog‘lashda muhim vazifani bajaradi. Ur ertak matnida qayta-qayta takrorlanib ketganligi uchun kichkintoylar xotirasidan mustahkam joy oladi, nutqning tez va ravon rivojlanishida katta rol o‘ynaydi.

Taniqli folklorshunos olim S.G.Lazutin takrorni ertak maromini yuzaga keltiruvchi rivojlantiruvchi usul deb qaraydi. Uning to‘g‘ri ta’kidlashiicha ertaklardagi kompozitsion marom ulardagi «o‘xshash ko‘rinish, manzara va epizodlarning takorolanishi natijasida, vujudga keladi».¹ lekin adabiyotshunoslikda «ertakdagi maromlilik masalasiga doir birorta kichik maqola ham yozilmagan. Bu haqda folklorga bag‘ishlangan darslik va o‘quv qo‘llanmalarida ham hnech qanday ma’lumot berilmagan».

Bizning o‘zbek xalqi va yozuvchilar tomoinadn kichkintoylar ruhiyati , bilim doirasiga mos tarzda yaratgan ertaklar ustadi olib bolrilgan tekshirishlarimiz ular matnida qo‘llangan, takror usulining quyidagi asosiy xillari borligini tasdiqlaydi:

¹ Лазутин С.Г. Поэтика русского фольклора.-М.1981 .с-164.

1. Qahramon asar davomida bir nechta obektlarga murojaat –iladi. Uning nutqiga ketma-ket obektlar yangi obektlar qo‘shilib birga takrorlanadi. Ertak maromi shu xil takror usulda vujudga kelib, rivojlanib boradi va yakunlanadi.

2. Qahramon yangi obektga murojaat qilganida uning nutqida avvalgilar takrorlanmaydi u yangi obekt nomini aytadi-yu avvalgilariga qarata aytgan so‘zlarini o‘zgartirmay takrorlayveradi.

3. Ertak syujetiga asos bo‘lgan mustaqil voqealar mazmuniga ayrim o‘zgartirishlar kiritiladi yoki voqealarning mazmunan o‘xshash bo‘laklari juz’iy o‘zgartirishlar bilan bir necha marta takrorlanadi.

Biz o‘rganib chiqqan adabiy ertaklarda xalq ertaklarida qo‘llangan takror usulning birinchi qahramaon nutida avvalgi obektlarning yangi obektlar bilan qo‘shilib, birga takrorlanishi uchramaydi. Maktabgacha yoshdagi bolalar uchun mo‘ljallangan adabiy ertaklarda asosan ikkinchi va uchinchi xili ko‘p qo‘llangan.

«Qarg‘avoy» nomli o‘zbek xalq ertagi takror usulining birinchi xili asosida yaratilgan. Unda ertak qahramoni qarg‘avoyning «ov qidirib, sarson bo‘lgani» va dengiz bo‘yida o‘tlab yurgan barra qo‘zichoqni ko‘rib, uni emoqchi bo‘lgani tasvirlanadi. Qo‘zichoq qarg‘avoyga «Qo‘lingni yuv, og‘zingni chayqa», deb maslahat beradi. SHundan keyin ertakning asosiy voqeasi boshlanadi. Qarg‘a o‘z maqsadiga erishishi uchun, kulolga, Tuprok qo‘rg‘onga, temirchi amakiga, kampirga navbat bilan muroajaat qiladi. Qarg‘a har gal yangi obektga murojaat qilar ekan, avaalgi obektlarda qilishi loxzim bo‘lgan ishlarni sanab o‘tadi. Masalan, birinchi obekt-dengizga qarab: «Qor-qor, dengiz-dengiz! Suv ber, og‘zitmni chayqab barra qo‘zichoqni mazza qilib eyman!»-desa ikkinchi obtek-kulolga qarab: «qar-qar, kulol, kulol! Menga ko‘za ber, ko‘zani dengizga eltaman, dengiz menga suv beradi, suvda og‘zimni chayqayman, so‘ngra brragina qo‘zichoqni mazza qilib eyman»-deydi.

SHunday qilib ertakda beshta murojaat obekti birin-ketin yangilanadi. Ertak maromi Qarg‘a nutqi orqali yuzaga keladi va o‘sib borveradi. Agar qarg‘aning oxirgi so‘zlariga e’tibor bersak, uning o‘z maqsadiga erishishi uchun

nima ishlar qilish kerakligini batafsil bayon etganligi tufayli nutqning shiddatli o'sib kengayib borganligiga ishonch hosil qilamiz:

«Qar-qar, Kampir-ona ana menga ber, olovni temirchiga eltaman temirchi tesha yasab beradi, tesha bilan Tuproq Qo'rg'onga boraman u tuproq beradi, tuproqni kulolga eltaman, u ko'za yasab beradi, ko'zani dengizga eltaman, u suv beradi, suvga ozzimni chayqab, barra qo'zichoqni mazza qilib eyman».¹

Ko'rinadiki o'xshasha voqealar takrorlanayotganda qahramon nutiqadiga me'yor muvozanat asosan bir xilda saqlanmoqda. CHunonchi, Qarg'a o'z nutqida to'rt marta bir xil o'xshash voqealar takrorlanayotganda to'rt marta bir xil ritmik anafora bilan murojaat qiladi va oxang bir xilligini saqlaydi: «Qar-qar Kulol!», «Qar-qar Qo'rg'on-qo'rg'on!», «Qar-qar Kampir-ona!», -deb murojaat qilgan.

Qarg'a nutqida har safar ana shunday ritmik anaforalardan keyin yangi jumla qo'shilgan, so'ngra ilgargi gaplar takrorlangan. Bu takrorlar natijasida ertakning xissiy kuchi ortib kompozitssion bir butunligi yuzaga kelgan. Eng muhimi shundaki ertak qahramoni nutqning shu xil takror usuli bilan rivjlanib borishi unda akas etgan voqea hodisalar tasvirlanayotgan narsalarning bola xotirasida to'liq saqlanib qolishida nutqning rivojlanishida katta rol o'ynaydi. Bola ertakni qiziqib tinglar ekan, Qarg'aning keyingi so'zlarini u bilan birga aytishga intiladi. CHunki Qarg'aning hama harakatlarini hayolan ko'rib gaplarini eshitib o'tirgan bola unda qayta-qayta takrorlanayotgan obrazlar ma'nosiga tushunib qahramonning gapini yodida saqlab qoladi va kelgusi gal nima deyishini oldindan bilib turadi. Ertak kompozitsiyasida beshta voqea ro'y berishiga qarmay bolaning diqqati chalg'imagaydi. CHunki voqealarning hammasi maqsadning ibo'ysunlirilgan. SHuning uchun bola voqea yakuniga qiziqish bilan qaraydi.

«Qarg'a maqsadiga erishish uchun tinmay harakat qilyapti, endi brragina qo'zichoqni eb qo'ycha,»-deb mulohaza yuritadi, hayajonlanadi. Uning begunoh qo'zichoqqa rahmi keladi. Axir, qo'zichoq hech kimga yomonlik qilmayapti,

¹ Кичкинтойлар учун христоматия-Тошкент, 1979 76-77 бетлар.

qarg‘a bo‘lsa uni emoqchi. Bu ertmak bola qalbida yomonlikka nisbatan norozilik uyg‘otadi, uni yaxshilik qilishga undaydi. Bolaning qo‘zichoqqa yordam bergusi keladi. SHuning uchun bola ruhiyatini, qalbini puxta bilgan «muallif xalq ertakda qo‘zichoqni qarg‘aga em qilib qo‘ymaydi». Aksincha, maqsadi yomonlik bo‘lgan qarg‘ani (ertakning xulosalovchi qismida) qattiq jazolaydi: «Qarg‘a juda charchagan edi. U ko‘za dengizga tushib ketmasin deb dumiga bog‘lab oldida suvga soldi. Ko‘zaga suv to‘la boshladi. U borgan sari og‘irlasha berdi. Ochko‘z qarg‘avoy bira to‘la ko‘proq suv g‘amlamoqni hayolladi. Ko‘za to‘ldi. Qarg‘avoy uni ko‘tarib uchish uchun qanotlarini yozdi, oyoqlarini ko‘tardi, ko‘tardi lekin uni ko‘tara olmay tiyanib ketib, dengizga quladi. Ming tamshanib qanot o‘zsa ham bo‘lmadi, cho‘kib ketdi. Buni ko‘rgan qo‘zichoq tumshug‘ini ko‘tarib, kulib qo‘ydi».¹

Demak, yomonlik, ochko‘zlik, shaxsiyatparatlik, johillik kabi yaramasliklar hech qachon tantana qilmaydi. Xalq ertaklarining jumladan, «qaravoy ertaganing ham bolalarning ma’naviy poklik ruhida tarbiyalashdagi eng katta xizmati ana shundadir».

Kichkintoylar ertagida qo‘llanadigan ikkinchi xil takoro boshqacharoqdir. Unda sar qahramoni obektlarda murojaat etganida avaligalarni aynan takrorlamaydi. SHunga ko‘ra bunday ertaklarda qahramon nutqi kattalashib ketmaydi. Qahramon tabiatidagi xususiyatlar uning takroriy shiddatili harakati va dialoglari orqali ko‘rsatiladi. Dialoglardagi savol va javoblarning lo‘nda qiziqarli, hayajonli bo‘lishi va asar mazmuni bilan mustahkam bog‘liqligi bola diqqat e’tiborni bir tuqtaga to‘playdi.

Bu usulga xos yana bir xususiyat shundan iboratki, ertakdagi qahramon biror ob’ektga, shaxsga aniq maqsad bilan murojaat etadi, unga savol beradi, nimalardir iltimos qiladi. Bu erda ob’ektning javobi hal qiluvchi rolni o‘ynab, keyingi savol yoki ish harakat uchun asos bo‘ladi. SHu jihatdan “Qumursqa” ertagini ko‘rib chiqaylik. Ertak “Bir kishi”ning safarga chiqqani haqidagi

¹ Кичкинтойлар учун христоматия-Тошкент, 1979 77 бет.

habardan boshlanadi, uning eshagi “muzga toyib yiqilib”, beli sinadi, keyin muz oldida o‘zini ojiz sezib, qattiq xafa bo‘ladi va alam bilan unga murojaat qiladi:

“Ey, muz aka, sen eng zo‘rmisan?”

Muz:-Men zo‘r bo‘lsam kun meni erita olarmidi?

SHunda u kishi kunga qarab:

-Ey, kun, sen eng, zo‘rmisan-dedi.

Mening ko‘zimni olarmidi,

SHunda u bulutlarga

Ey bulut aka, sen eng zo‘rmisan?-dedi:¹

Aniq ko‘rinib turibdiki dialogda ob’ektning javobi keyingi savol uchun zamin yaratimoqda. Qaxramon nutqida takror kelayotgan “ey” anaforasi xitobni kuchaytirish maqsadida qo‘llangan.

Uchala ob’ekt ham o‘zidan zo‘rroq deb bilganlarini aytishgan, qahramondagi “xafagarchilik unutilib” “kim zo‘r” ekanligini bilishga bo‘lgan qiziqish ortadi. SHu sababli qahramon keyingi ya’ni to‘rtinchi ob’ektga to‘g‘ridan-to‘g‘ri “ey” so‘zini qo‘llamay, murojaat qiladi.

- “Yomg‘ir aka, sen eng zo‘rmisan?”

- Yomg‘ir:-Men zo‘r bo‘lsam, erga singib ketarmidim?

U erga qarab:

- Er aka, sen eng zo‘rmisan?

Er:-Men zo‘r bo‘lsam, o‘tlar teshib chiqarmidi?²

Voqea ana shunday takror usuli natijasida vujudga kelgan maromda davom etaveradi.

Har bir ob’ekt o‘zidan zo‘rroq deb bilganlari (O‘t, mol, Bo‘ri, Mergan va boshqalar)ni ko‘rsataveradi.

Ma’lumki, kichik yoshdagi bolalarda, ayniqsa, o‘g‘il bolalarda eng katta eng zo‘r karsani bilimga bo‘lgan qiziqishi “Qumursqa” ertagida jozibali ifoda

¹ Боғчаларнинг катта гуруҳи учун Хрестоматия Т. 1981й: 100-бет.

² Ўша китоб, 101-бет.

etilgan, Ertak syujetidan bilinadiki, hech kim nazariga ilmaydigan kichkina qumursqa o‘zini hammadan zo‘r deb yurar ekan.

Nima uchun Qumursqa shunday deydi: “Men zo‘r, men zo‘r. Otagning olti yuz botmon bug‘doyini etti tog‘dan ayirib eganman. Men zo‘rman men zo‘r, men zo‘r!”¹

Asarda bu so‘zlar (zo‘rlik, kuchlilik) qumursqalarning mehnatsevarligiga mubalag‘ali, fantastik usulda asoslanganligi uchun bolalar uning chinligiga ishonadilar.

Ertak qahramonining savolidagi “Sen eng zo‘rmisan?” sintaktik eteforasi o‘n bir marta va personajlarning javobidagi “Men zo‘r bo‘lsam” sintaktik epiforasi esa o‘n marta o‘zgarishsiz takrorlanadi. Dialoglarda ishlatilgan bu uslubiy yo‘llar maromning ohangdorligini va izchilligini oshirgan.

SHunday qilib, tabiatdagi dialektik qonuniyat ertakda qo‘llanilgan takror usuli orqali sodda va jonli tarzda bola ongiga etib borgan.

P. MUxammadyorova esa halq ertagi an‘anasidan foydalangan holda unga ijodiy munosabatda bo‘ladi. Undagi takror kelayotgan to‘rtta voqea bir-biriga butunlay o‘xshamagan to‘rtta joyda sodir bo‘ladi. Muallif har bir voqea sodir bo‘layotgan joy haqida qisqa badiiy izoh berishga harakat qiladi. Bu har bir voqeaning mustaqilligini ta‘min etadi. Ertak g‘oyasini chuqurlashtiradi va ayni paytda uning murakkablashib borishiga sabab bo‘ladi. Lekin muallif takror usulidagi intonatsion ohangni maromdan izchillikni og‘ishmay bir tekisda qo‘llaganligi tufayli u bolani zeriktirmaydi voqealar zanjirini to‘g‘ri tushunishga yordam beradi.

A.Abdurazzoqning “Uch og‘ayni botirlar” ertagida ham takror usulining uchinchi xilidan foydalanilgan. Ertakda shaklan o‘xshash, mazmunan noo‘xshash ketma-ket uchta voqea tasvirlanadi. Ularning har uchalasida o‘zgarishsiz kelgan quyidagi jumlar: “Nega emaysizlar”; “Emaymizda”; “Qornimiz to‘q” va juz‘iy o‘zlari bilan “Qani olinglar-debdi olmaxon, o‘zi

¹ Боғчаларнинг катта гуруҳи учун хрестоматия-Тошкент, 1981 101-бет

yong‘oqlarni olib bir-bir chaqib eb boshlabdi. Mushuk bilan Quyon qarab o‘tirishibdi”. Ikkinchi voqeada:

- “Qani olinglar,-debdi Quyon. O‘zi sabzi eyishga tushib ketibdi. Mushuk bilan Olmaxon qarab o‘tiraverishibdi” degan jumlar ohang butunligini saqlagan.

Ammo ertakda halqimizning “Teng tengi bilan...” naqlining ma‘nosi mantiqan noto‘g‘ri talqin etilgan. Bu ertak syujeti “Tulki va turna nomli rus xalq ertagi syujetiga ma‘lu darajada o‘xshaydi. Xalq ertagida Tulki bilan Turna do‘st bo‘lishib, bir-birlarini mehmon qilishadi, Ikkala ertak bolalarbop bo‘lib qiziqarli rivojlanadi. Lekin, ertaklarda haqiqiy do‘st bo‘lmaslik sabablari ikki xil g‘oyaviy tarzda ko‘rsatilgan.

“Tulki va Turna”da do‘stlashishni istovchilarning o‘zaro munosabatlarida samimiylik yo‘qligini ko‘rsatish birinchi o‘ringa qo‘yilgan. Tulki “do‘sti” Turnaning uyiga mehmon chaqiradi. U Turna eya olmasin deya tarelkaga bo‘tqani atayin yupqa qilib surkaydi.

Mehmondorchilik paytida Tulki Turnaga shirin gaplar aytadi-yu, ammo bo‘tqaning hammasini o‘zi eb oladi. Ichida esa Turnaning ovqat eya olmaganidan, uni boplaganidan xursand bo‘ladi. “Do‘sti” ustidan kuladi.

Keyingi gal Turna Tulkini o‘z uyiga mehmonga chaqiradi va undan “qasos olish uchun oldiga ingichka ko‘zachada ovqat qo‘yadi. Tabiiyki, Tulkining og‘zi ko‘zachaga sig‘maydi va u och qoladi. Lekin u mezbonga e’tiroz bildira olmaydi. Chunki o‘zi ham “do‘sti”ni shunday kutib olgan edi.

Demak, halq ertagiga “qars ikki qo‘ldan”, “hurmat qilsang hurmat ko‘rasan”, “o‘zaro samimiylik bo‘lmasa o‘zaro do‘stlik ham bo‘lmaydi” singari g‘oyalar singdirilgan.

Xullsa, maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yaratilgan ertaklarda ko‘p qo‘llaniladigan badiiy usullardan biri takror va uning xillaridir. Bu usul ertaklarda aks etgan tarbiyaviy ahamiyatiga molik g‘oyalarni ta’sirini ifoda etishda, bolalarning ularni zavq-shavq bilan tinglashlarida muhim badiiy vazifani bajaradi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar uchun yozilgan hikoya janridagi badiiy mukammal asarlar ertak janridagi asardan qolishmaydi. Hikoya janrining o‘ziga xos alohida xususiyatlari uni kichkintoylarga yaqinlashtiradi: “Hikoyaning o‘ziga xos tomonlari: harakatdagi ichki rivojlanish, butun sabablarning bir markazga birlashish, ixchamlik, shuningdek bayondagi alohida nozichlik uni bolalar tabiatiga moslashtiradi”¹

Kattalar adabiyotida hikoya janrida yozilgan asarlarda ko‘pincha qahramon hayotidagi aniq bir davr, voqea tasvirlanadi, uning fe‘l atvori taraqqiyotdagi bir jihat ochiladi, bir burilish nuqtasi ko‘rsatiladi. To‘g‘ri, bu gaplarni barcha hikoyalarga tadbiq etish mumkin emas. Chunki shunday hikoyalar (masalan, M.Sholxovning “Inson taqdiri”) borki, ularda qahramon hayotida yuz bergan bir necha voqealar aks etadi, uning tabiatidagi ko‘p qirralar ochiladi.

Bolalar adabiyotida jumladan, bog‘cha yoshdagi bolalar adabiyotida yaratilgan hikoyalarni ham bir qalpga solish, bir hilda ta‘riflash mumkin emas. Chunki ular orasida qahramonlar hayotidan olingan bir va bir necha voqealar aks etgan. Hikoyalar ham qahramonlar tabiatidagi bir va bir necha xususiyatlar ochilgan hikoyalar ham mavjud. Lekin bu masalalar bog‘cha yoshdagi bolalar hikoyasida kichik, o‘rta va katta maktab yoshidagi bolalar hikoyalaridan boshqacha tarzda hal etiladi. Ularda badiiy obraz yaratish xam o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi. Adabiyotshunos M.Xusainov ta‘kidlaganidek: “O‘zbek bolalar hikoyachiligidagi mavjud asarlarda mehnatga, maktabga, vatanga katta yoshlilarga izzat, kichkinalarga shavqatli bo‘lish singari didaktik, pedagogik tarzdagi g‘oyaviy yo‘nalishlar bosh rejada tashviq etiladi, bolalarni ruhiy dunyolari izchil va xaqqoniy ko‘rsatiladi”¹

Yozuvchilarimizning maktabgacha yoshdagi bolalar uchun yozgan hikoyalarida yaratilgan qahramonlar obrazini asosan ikki guruhga ajratish mumkin: birinchisi bolalar obrazi ikkinchisi kattalar obrazi.

¹ Поговарим о рассказы. Детская литература. 1988, 2-сон, 25-бет

¹ Ўзбек болалар адабиёти ва адабий жараён-Тошкент, 1989 йил, 206-бет.

2.2. Bolalar obrazi

Kichkintoylarning o'ziga xos dunyosi, ular orasida sodir bo'luvchi xar xil ziddiyatlar, turmushni o'rganishga bo'lgan intilishgar va boshqalar hikoya uchun qizik material bo'ladi. Tabiiyki, bu hikoyalarning markaziy qahramonlari, asosan bog'cha yoshidagi bolalarni kundalik hayoti: uyda, ko'chada, o'rtoqlari davrasida, kattalar orasida tasvirlab, ularning badiiy obrazini yaratish orqali qalblaridagi yaxshilikka, ezgulikka, go'zallikka intilish, yomonlikni nisbatan murosasiz bo'lish kabi xislatlarni rivojlantirishga harakat qiladilar.

Ma'lumki, maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotining o'ziga xos muhim xususiyatlaridan biri aniqlik va ravshanlikdir. CHes janri YA, Olbrak

Qayd etilgandek, bolalar uchun yozayotganda "daraxtda" qushcha o'tiribdi kabi umumiy tarzda emas balki, "Olsa (zirk) daraxtida sariq chumchuq o'tiribdi" shaklida aniq yozish kerak. O'zbek yozuvchilarining bog'cha yoshdagi bolalar uchun yozgan hikoyalarining ko'pchiligida ana shu talablarga rioya qilinadi. SHu nuqtai nazardan R. Azizxo'jaevning "Oyijon" va A. Irisovning "Bilmay qolib" hikoyasidagi Rayhonning nojo'ya harakati ham ortiqcha tafsilotlarsiz ko'rsatiladi. Hikoyada hammasi bo'lib olti jumla bor. SHunisi diqqatga sazovorki, undagi har bir jumla voqeadagi pedagogik fikrni yanada kengroq ochishga xizmat qiladi.

Hikoya shunday boshlanadi: "Rayhon yong'oq chaqib edida, po'chog'ini oyoq ostiga tashladi"¹ voqea tuguni vazifasini o'tovchi shu xabar bola diqqatini bir erga to'plab olishga ko'mak beradi. SHundan so'ng asosiy voqea tez rivojlanadi. "Akasi Baxtiyor chopib chiqqan edi, yong'oq pochag'ini bosib oldi". Muallif shu bilan cheklansa xam bo'lardi. CHunki, yong'oq po'chog'ini bosib olishning o'zi xam nixoyatda noxush hol. Lekin hikoyadagi tasvir bo'shashtirilmay voqea yanada keskinlashtiriladi: "Po'choq oyog'iga kirish qonatdi" darhaqiqat, agar yong'oq po'chog'ini shunchaki bosib olganda, Rayhon buni ko'rib u darajada ta'sirlanmasligi va qilgan ishini noma'qulligini xis

¹ Ирисов А. Бу қандай юз берди. –Тошкент 1996-йил. 22-бет

qilmasligi mumkin edi. SHuning uchun muallif tavsilot va voqeani aniq va hayotiy ko'rsatadi. Hikoya tugallanmasida bolaning holati quyidagicha tasvirlanadi. "Baxtiyor yig'ladi, Baxtiyorga qo'shilib Rayhon xam yig'ladi" ana shu xulosa tinglovchining hikoyadagi obrazlar ruhiyatini to'liq xis etishga xizmat qiladi.

Ma'lumki bolalar adabiyotini, xususan, maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotini didaktikasiz tasavvur qilib bo'lmaydi. P.SHermuxammedov aytganidek, "obrazlar vositasi orqali ifodalangan didaktika-bolalar adabiyotining joni, qoni"²

U kitoblarda qanday namoyon bo'ladi. Didaktiga pand nasixat targ'ibotni "YAlang'och holda ko'rsatish bolalar kitoblariga to'g'ri kelmaydi. Lekin didaktiga bolalar adabiyotida o'ziga xos zarurat va fazilatdir". (I.Matyashov)

Darhaqiqat "Oyijon" hikoyasidagi didaktik fikr ota – onaga, kattalarga yoki kichiklarga mehribonlik munosabatini, "bilmay qolib" hikoyasidagi shu xil tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Olimlarimizning badiiy adabiyotda obraz va obrazlilik, obrazlarning xillari, ularni yaratish usullari, masalan, partret chizish, muhit, peyzaj tasviri, qahramon nutqi, muallif nutqi, tipiklashtirishi, individuallashtirish, va boshya masalalarga oid bu tadqiqotlardagi nazariy fikrlarning ko'pligi bog'cha yoshdagi bolalar adabiyotiga ham ta'luqlidir. kattalar va kichiklar adabiyotidagi ko'pchilik nazariy fikrlar umumiylik kasb etsa – da, ularni qo'llashda jiddiy farqlar ham mavjud.

X.Nazir Mirmuqsin, M.Murodov,X.To'xtaboev, YA.Sa'dullaeva, S.Anorboev, P.Muxammadiyoroova, M.Jaloldinova, I.Qo'chqartoev, T.Rasulov, K.Rahim va boshqa yozuvchilarning kichkintoylar tafakkuriga mos tarzda yozilgan ko'plab hikoyalarni o'rganib chiqib, shunday xulosaga keldik: yozuvchilarimiz obraz yaratishda ko'proq qahramon nutqini tasvirlash va muallif ta'rifidan foydalanilgan: bundan tashqari, kichkintoylar hikoyasida

² П.Шермухаммедов. Давр қаҳрамон. Тошкент 1976 йил. 199-бет.

qahramon nutqini tasvirlashda badiiy nutqning eng ko'p qo'llanadigan xili dialog ekanligini ham alohida qayd etish lozim.

Bolalar yozuvchisi ham yigirmalar, elliklar, yuzlab qiz va o'g'il bolalar "ichidan eng karakterli" xususiyatlarni "ajratib olib", yakka bir o'g'il yoki qizbola qiyofasiga birlashtira olsa, demak, u shu usul bilan "tip" yaratgan bo'ladi va yaratilgan bunday obraz xuddi kattalar adabiyoti singari bolalar adabiyotida "san'at bo'ladi".

Kichkintoylar uchun yozilgan ko'pkina hikoyalarni kuzatishda shu narsa ma'lum bo'ladi, aksariyat xollarda yozuvchilar fe'l – atvoriga oid biron hususiyatni qayd etib so'ng voqea rivojida ana shu xususiyatni to'ldirib, yoritib borilgan. Masalan, N.Orifjonovichning "Ishi" hikoyaidagi Abdumutalga oilasi "yuz qo'lingni yuvib ol, so'ng qovunni so'yamiz" deydi. Bola ko'nmaydi. Muallif bolaning keyingi harakatini tasvirlar ekan, Abdumutalga xos xususiyatni bitta so'z bilan qayt etib o'tadi. "Abdumutal qaysar bola, borib pichoqni topib keldi-da, qovunni so'ya boshladi"¹. Yana bir misolga muraat qilaylik: A.Jo'raevning "Men shira emasman-ku nomli hikoyasining qahramoni" Ahmad choyga rosa murabbo qo'shib ichdi. Murabbo avval qo'liga, so'ngra betiga yopishdi. Biroq u yuz – qo'lini yuvishni xayoliga ham keltirmadi. O'yinchoq mashinasini g'ing – g'ing ettirib oldingga, orqaga hayday boshladi².

Keltirilgan misollardan ko'rinib turibdi, hikoya qahramonlari qandaydir mavhum bola shaklida emas, balki biron xususiyati bilan atrofdagilardan ajralib turuvchi aniq qiyafa egasdir. Muallif (birinchi misolda) qahramonning "qaysar" ekanligi haqida ma'lumot beradi.

Keyin esa shu ta'rifni isbotlovchi aniq "qaysar bola" qiyofasi "kitobxonlar" ko'z o'ngida namoyon bo'lishini taminlangan. Ikkinchi misolda muallif avval qahramonning yuz qo'llari shira bo'lib ifloslanganini aytadi. So'ng bolaning yuvinishini "xayoliga ham keltirmay" mashinasi bilan o'ynay boshlaganini ko'rsatadi. Ana shu biringchi tasvirdan keyin kelgan aniq voqea

“kitobxon” lar ko‘z o‘ngida irkid bolaning gavdalanishiga ko‘mak bergan. chunki ozodlikka o‘rgangan bola shira qo‘llari bilan bemalol mashina o‘ynay olmaydi. Ahir qo‘l shira bo‘lsa, har narsaga yopishib qola berishini juda kichik yoshdagi bola ham yaxshi biladi. Demak agar yozuvchi qahramon tabiatidagi bir salbiy xususiyatni ochishda yana boshqa biron badiiy vositadan foydalanishga uringanida, g‘oyaviy maqsadga erisha olmasdi. Bu hikoya yukini og‘irlashtirib, uning cho‘zilib ketishiga olib kelardi.

Natijada tinglovchi cho‘zilib ketishga olib kelardi. Natijada tinglovchi diqaati chalg‘ib, hikoyadagi fikrni tushuna olmasdi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar ertaklarida bo‘lganiday, hikoya janrida yozilgan asarlar orasida ham ismsiz qahramonlar uchraydi. Lekin ular ismsiz bo‘lsa ham o‘ziga xos qiyofaga ega (shu o‘rinda bitta ertakdan misol keltirib so‘ng hikoyalar bo‘yicha fikrimizni davom ettirsak). “Bor ekan, yo‘q ekan, bir qishloqda jajjigina bir qizcha bor ekan. U dunyoda tengi yo‘q juda yoqimtoy ekan”. Buvisi unga tug‘ilgan uni sharafiga bitta qizil shapkacha sovg‘a qilibdi. Qizcha qayoqqa borcha, shu chiroyli yangi qizil shapkachasini kiyib borar ekan. Qo‘ni – qo‘shnilar uni ko‘rganda:

“Ana, qizil shapkacha: ” – der ekanlar.¹

Bu misolda jajjigina qizcha”ga juda ko‘p ta’riflar berilgan bo‘lsa – da. uni o‘ziga xos individuallashtirayotgan tomoni bu bitta – Qizchaning ayoqqa borsa, shu chiroyli, qizil shapkachasini kiyib borishi” dir.

CHunki dunyoda “jajjigina”, “tengi yo‘q yoqimtoy”, “tug‘ilgan kuni sharafiga bitta qizil shapkachasi”ni kiyib yurgani uchun odamlar “ana qizil shapkacha” kelyapti deb, xatto ismi “Qizil SHapkacha” bo‘lib ketgan qizcha bu faqat shu ertakda bor. Ayni shu narsa qahramonning o‘ziga xosligini ta’lim eta olgan.

Ma’lumki bog‘cha yoshdagi bolalar orasida qizlar nisbatan dadil bo‘ladilar. Hikoyaning ikkinchi qahramoni gulshod Nodirning xunuk qilig‘ini ko‘rib chidolmaydi. U “shaxd bilan uning oliga bordi”. Nima uylaringda

¹ Перро Ш. Қизил шапкача. Кичкинтойлар учун хрестоматия 13 – бет.

konfeting yo‘qmi. – dedi qoshini chimirib. – olib tashla:”² . gulshod harakteridagi kurashchanli, odobsizlikka nisbatan murossasizlik yozuvchi tomonidan juda ishonarli tasvirlangani uchun tinglovchi – bola bu ko‘rinishni bemalol ko‘z o‘ngiga keltira oladi.

Muallif bu bilan cheklanmaydi. Qizcha tabiatidagi qa‘tiylikni ko‘rsatishni davom ettiradi. Gulshod buyrug‘ining bajarilishini kutishga sabri chidamay, Nodirning cho‘ntagiga qo‘l solib, konfetni omoqchi bo‘ladi. Ziddiyatning bu darajada keskinlashuvi Nodir fe‘lning boshqa qirrasini ochilishiga turtki bo‘ladi. Nodir - g‘ururli bola. Gulshodning hatti – harakatidan unig izzat – nafi bukilai va qizni turtib yuborib, konfetlarni cho‘ntakdan olib dasturxonga uloqtiradida, otilib xonadan chiqib ketadi.

SHunday bollar borki, qilgan ishidan hijolat bo‘lib o‘zini yo‘qotib qo‘yishi, yig‘avorishi yoki qizarib bo‘ynini egib turishi mumkin. Lekin msallif Nodirning hatti-harakatlarini hayotiy ko‘rsatib undagi o‘ziga xos xususiyatlarni to‘g‘ri tasvirlagan. Insonga xos xususiyatlardan biri biron kimsadan hafa bo‘ldimi, beixtiyor o‘sha odamga, qilgan yaxshiligini eslaydi.

Katta odam iztirob chekib yuraverishi mumkin. Ammo bola boshqacha yo‘l tutadi. Ammo bola boshqacha yo‘l tutadi. “Nodir” hali bolalar nima bo‘layotganiga tushunib etmayoq orqasiga qaytib, to‘g‘ri Go‘zalning oldiga borib:

- Qaytarib ber: Sovg‘amni qaytarib: - dedi:

U qo‘shni qizga ayiqcha sovg‘a qilgan edi.

Hikoya syujetiga asos bo‘lgan voqeadan, muallif faqat bog‘cha yoshdagi bola qilishi muki bo‘lgan xatti – xarakatlarni real tasvirlangan va uni Nodir obrazi orqali badiiy umumlashtirgan.

Hikoya syudjetiga asos bo‘lgan voqeadan, muallif faqat bog‘cha bola yoshdagi qilishi mumkin bo‘lgan hatti – harakatlarni real tasvirlagan va Nodir obrazi orqali badiiy umumlashtirgan.

² Саъдуллаева Я. Қоғоз куш. Тошкент, 1979 йил. 23-бет.

Adiba voqeadan xulosa chiqarmaydi. Lekin hikoyadan engil yumordan, Gulshodning “tarbiya” sidan tinglovchi – bolalar mehmondorsilikda tengdoshlar davrasida o‘zlarini qanday tutish lozimligi haqida tegishli xulosa chiqarib oladilar.

O‘. Xoshimovning “CHama”, F. Musajonovning “eng yaxshi chana” va YO.raximovaning “chana” hikoyalaridan ham qahramonlarining tipik va o‘xziga xos obrazi yaratilgan.

Uch asar sarlavhasidan bilinib turibdiki, ular uchun bir badiiy detal (chana) tanlab olingan ular bolalarning qish faslidan eng sevimli o‘yinlaridan biri (chana uchish) tasviriga bag‘ishlangan. SHu jihatdan tabiiyki, ba’zi o‘xshash tomonlari ham bor. Masalan, uch hikoya ham habardan boshlanadi. Farhodning dadasi chana olib keldi. (F.Musaxonov) “Dilshodning chanasi bor” (YO.rahimova).

O‘.Xoshimova hikoyasidan chananing tashqi ko‘rinishi “sirpanchiq, qanotlari yaroq – yaroq qilib tursa, F.Musajonov hikoyasida chananing oldingi ikkala oyog‘i xuddi” qo‘chqarnin shoxiga o‘xshab buralib ketgan. YO.rahimova hikoyasida chana esa katta va baquvvat shaklda tasvirlanadi. To‘g‘ri, uch muallifning hikoyasidagi voqeaning bir xil mantiqiy qurilmasi bola, chana – bolalar asosida oschiladi. Lekin uch hikoya obrazi yaratishi usullari g‘oyaviy – tarbiyaviy ahamiyati jihatidan bir – biriga o‘xshamaydi.

O‘.Xoshimov ikki muallifdan farqli o‘laroq hikoyasida ochiq didaktika qo‘llangan. Hikoya boshida Farhodning dadasi o‘g‘liga “CHanangnichi o‘rtoqlaring bilan uchgin xo‘pmi,” deb tayinlaydi. bu nasihat bejiz kiritilmagan.

CHunki ota o‘g‘lining tabiatida takabburlik qizg‘anchilik kabi xususiyatlar borligini biladi. Ammo Farhod otasining bu nasihatiga munosabat bildirmaydi. Muallif buni ikki og‘iz so‘z bilan shunday izohlaydi. “Farhod indamadi” ana shu gapdan tinglovchi bolalar ham Farhod tabiatidan nuhsionini sezadi. Muallifning hikoyasi yozishidan asosiy maqsadi boladagi takabburlikni uning hatti – xarakterlaridan bolalar bilan bo‘lgan munosabatida ravshan ko‘rsatib undagi shu kasallikni davolashdir. Albatta, bu katta yoshdagi bolalarda

emas, balki bog'cha yoshidagi bola tabiatida endi paydo bo'lib, shakllanayotgan takabburlikdir. Muallif buni bir jdaqqa ham unutmaydi. U qahramonni ruhiyatini tahlil etish orqali xudbinlikning yomon oqibatlariga olib kelishi mumkinligini asoslab ko'rsatadi. Ma'lumki bolalar ichki hissiyotlarini yashirishini bilishmaydi. Hikoyada bu tipik xolat to'g'ri ifoda etiladi. Farhodning o'rtoqlari uning chanasini ko'rishganda ochiq ko'ngillik bilan unga xavas qilishadi. Lekin hammaning diqqat – e'tibori qaratilganini ko'rgan Farhod ochiq – oydin kekkayib ketadi. CHanasini xech kimga bermay, yolg'iz o'zi uchadi. Muallif qahramonning harakatlariga aralashmaydi, balki uni zimdan kuzatadi. Lekin uning bo'layotgan voqealarini badiiy tasvirlab ularga baho berayotganligi sezilib turadi. Masalan, Farhod “Tepalikning” eng ustiga chiqib, chana o'tirib oldi. Keyin oyog'i bilan bir sistagan edi, chana shuvillab pastga uchib ketdi. Farhodning yuziga uchqunlari urilar, chana esa qushdek uchib borar, uni qulog'i ostida shamol g'uvillar, ammo sovqotmas edi.

«Mavzu:» 1 Ha “mazza” Lekin... Hikoyada ona shu “lekin” ham ustalik bilan ko'rsatilgan. Nihoyat Farhod charchaydi va shundan keyin bolalarni o'zi bilan “galma - gal” uchishga chaqiradi. Muallif shu o'rinda antiteza usulidan foydalanadi. Hikoya bolalar Farhodga “meni o'chir” galma – galdan va Farhod ko'rmagan edi. Hikoyaning ohirida esa Farhod bolalarga yalinadi, ular esa ko'nishmaydi, shunday qilib Farhod grammatik vaziyat ichida qoladi. U nima qilishni bilmagan “yig'lab yuborish” holatiga tushadi. SHundagina u otasining maslahatini eslab uning ma'nosiga tushunib etadi. Demak, bolalar o'zlarini bilmagan holda Farhodni jazolashadi va bu jazodan o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi.

YO, Rahimovanning “CHana” hikoyasining qahramoni Dilshou ham yuqoridagi hikoya qahramoni Farhodday chanasini hech kimga beriy, bir o'zi uchadi. O'. Hoshimovning hikoyasda boladagi takabburlik, qizg'anchilikni ko'rsatish birinchi o'ringa chiqarilgan bo'lsa, YO Rahiomva hikoyasida o'rtoqchilikning gashti, fayzi ulug'lanadi. SHuning uchun YO Rahimova hikoya davomida yolg'iz o'zi chana uchayotgan Dilshodni birgalikda quvnab o'ynayotgan bolalar

bilan qarama – qarshi tarzda tasvirlaydi: bolalar bir – birlarining etaklaridan ushlab, “poezd” aytgan tepalikdan sirpanib tushisharkan, bir – birlariga urilib ketishar, qiyqirib qorga dumalashardi. Dilshod o‘zi bir chanasida rosa u yoqdan - bu yoqqa sanasida uchadi.

Qarama – qarshi qo‘yish usulida tasvirlash hikoya oxirigacha izchil davom etadi. Muallif Dilshodning ichki kechinmalarini ham uning tabiatiga mos ravishda haqqoniy tasvirlaydi. Masalan, Dilshod zerikib ketgach, huddi Hoshimovning Farhodday bolalar oldiga boradi.

Ikkala muallif ham qahramonlari tabiatini ochishdi. Mana shu parchadan yaxshi foydalanilgan. Ikkala muallif ham qahramonlari tabiatini ochishda mana shu parchadan foydalanishgan. Ikkala bolanign tabiatida ham dimog‘dorlik bor. Lekin Farhodda u endi paydo bo‘layotgan bo‘lsa, Dilshodda anchagina shakllangan. SHuning uchun ham Farhod zerikkach, o‘rtoqlari oldiga borib, o‘ynab o‘tirgan, ularni chamasida uchishga taklif qiladi. Dilshod esa “bolalarning birortasi”ning “meni ham uchir deb yalinishini kutib turadi.”

YO.Raimova hikoyasida Dilshod boshqacha “jazolamaydi”. Bolalar xudbinligi uchun dilshodni yakkalab qo‘ydilar. Ular “huddi Dilshod yo‘qdayunga unga parvo qilmay, shox – shodon qiyqirishganicha yamalak uchish bilan ovora edilar”. Ajoyib, eng zo‘r chananing egasi Dilshod esa o‘rtoqlarining o‘ziga e’tibor erishlarini kutib turadi.

YO. Rkahimova O‘.Hoshimovdan farqli ravishda qahramonning ichki drammatik holatini ancha keng yo‘sinda ko‘rsata olgan hikoya nihoyasida Dilshod o‘z qilmishidan pushaymon bo‘lib shunday xulosaga keladi:

“Agar dunyoda tengi yo‘q chamang bo‘lsa ham, kekkayib o‘rtoqlarimdan ajralib, bir chetda yolg‘iz qolishdan yomoni yo‘q ekan”.

Bu didaktik hulosa bo‘lmay, yorqin badiiy tasvirdan, obraz mohiyatidan keltirib chiqarishligi uchun kichkintoylar qalbi va ongiga tez etib boradi va ularni o‘zaro do‘stlik o‘rtoqlik ruhida tarbiyalashda muhim rol o‘ynaydi.

Biz, kattalar bolalarga olib bergan o‘yinchoqlarimizni, toza, ozoda tutishlarini uqtiramiz. Kichkintoylarni unday tartib – qoidalarga odatlantirish,

albatta, kerak, lekin hamma bolalar ham bu tartib qoidalar mohiyatini to'g'ri tushunilmaydi. Natijeada ayrim bolalar o'yinchoqlarini ehtiyot qilish, asrash maqsadida ularni o'z o'rtoqlariga berish u yoqda tursin, hatto kir, iflos bo'lishidan va buzilishidan qo'rqib, o'zlari ham o'ynamay, avaylab asraydilar. Bu esa avvalambor, bolani bolalik alamidan marum qilsa, ikkinchidan, uning tabiatida buyumparastlik, bbumni odamdan ustun qo'yish kabi salbiy xususiyatlarni paydo qiladi. Bu nihoyatda muhim masalaga jiddiy e'tibor berish biz kattalarning burchidir.

XULOSA.

Ushbu bitiruv malakakaviy ishi maktabgacha tarbiya yoshdagi adabiyotning o'ziga, xos xususiyatlari jumladan xalq og'zaki ijodining kichik yoshdagi bolalar uchun yaratilgan nasriy asarlardagi g'oyaviylik va badiiylik muammolari asosida tekshirilib, quyidagi xulosalarga kelindi:

Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar adabiyoti – o'ziga xos adabiyot. Bu o'ziga xoslikning asosini uning o'quvchilariga emas, asosan eshituvchi tinglovchi bolalarga mo'ljallanganidan izlash kerak. Bu adabiyotning kattalar, kichik va o'rta yoshli maktab o'quvchilari adabiyotiga o'xshash va farqli xususiyatlari bor. Bu adabiyotning kattalar, kichik va o'rta ishli maktab o'quvchilari adabiyotiga o'xshash va farqli xususiyatlari bor. Bu xususiyatlarning ba'zilar haqida fikr – yuridik.

- Barcha yoshdagi o'zbek bolalar marsining mavzulari, g'oyalari, obrazlari nihoyatda xilma – xil. Bu asarlarning pedagogik – tarbiyaviy ahamiyati shundaki, ularda insoniylik, adolatparvarlik, mehnatsevarlik, o'rtoqlik, do'stlik, to'g'rilik, xalollik, oqillik, qo'rqmaslik, jasurlik, va boshqa ijobiy fazilatlar ulug'lanadi: qo'rqoqlik, munofiqlik, xudbinlik, xosiyolik, dangasalik, aldanchilik, ayyorlik, manmanlik, odobsizlik kabi yomon hulq - atvorlar qoralanadi: Adiblarimiz o'zlarining eng yaxshi asarlarida badiiylikning asosiy bklgilarini tashkil etuvi aks ettirish va obraz yaratish usullari vositalaridan foydalanganlar va maktabgacha yoshdagi bolalar adabiyotining o'ziga xosligi masalalariga rioya qilganlar.

- Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar narsaning janrlari kattalar va maktab o'quvchilari nasriga nisbatan unchalik ko'p emas. Bog'cha yoshdagi bolalar nasrida yirik hajmli, murakkab qurilmali asarlar – roman qissa janrlarida yozilgan asarlar ham uchramaydi. Maktabgacha tarbiya yoshdagi jahon bolalar nasriyda bo'lganidek shu yoshdagi. O'zbek bolalar nasrining ham eng taraqqiy etgan janrlari ertak va hikoyadir.

- O'zbek adabiyotlari insonparvarlik, vatanparvarlik, baynalminal, ahloqiy tarbiyaviy va boshqa g'oyalarni kichkintoylar qalbiga qiziqarli, ta'sirli shakllarda etkazishda erotak va hikoya janrlarining o'ziga xos badiiy xususiyatlaridan ijodiy fodalanganlar.

- Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar uchun yaratilgan o'zbek halq ertaklari va adabiy ertaklarining asosiy ko'pchiligida har xil hayvonlar parrandalar, darrandalar, hasharotlar, o'simliklar, tabiat xodisalarga, turli buyumlar obrozi yaratilgan. Lekin bularning barchasi obrazlardir. Ularning o'zlariga xos tabiat belgi xususiyatlari, xatta – xarakati saqlangan xolda saqlangan xolda jonlantirib tasvirlangan. Ma'lumki bunday ramziy obrazlardir. Ularning o'zlariga xos tabii belgi saqlangan xolda jonlantirib tasvirlangan. Ma'lumki, unday ramziy obrazli ertaklar kattalar adabiyotiga ham ko'plab mavjud: Bunday ertaklarda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar ertagining o'ziga xos farqlari bor.

- Bu farqlar, birinchidan ertaklardan ertaklardan hir xil hayvonlar, parrandalar, o'simliklar, jonli – jonsiz narsalar xayoti, xatti – harakati, ruhiyati, tafakkuri barcha yoshdagi bolalarga xosligini sezilib turishida ikkinchidan, asarlarining ichki va tashqi badiiy shaklda, syujeti, kompazitsiyalar va ziddiyatlar qurilishida, xayotlik va uydurma, g'ayritabiiylikning qo'shilishi me'zonlari o'ziga xosligida namoyon bo'ladi.

Bog'cha yoshidagi bolalar uchun yaratilgan o'zbek halq ertaklari va adabiy ertaklar ichida, garchi oz bo'lsada, bevosita odamlar obrazi yaratilgan asarlar ham mavjud. Maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalar ruhiy olamiga mos tarzda yaratilgan o'zbek adilarining adabiy ertaklarida kichkintoylar dunyoqarashining shakllantirishida muim rol o'ynovchi xalq ertaklari taktikasiga xos an'analariga ijodiy rooya qilinib talqin qilinganligi uchun ular qiziqarli, ta'sirli chiqqan.

- ertaklarda mazmun va g'oyalarni qiziqarli, ta'sirli ifoda etishda eng ko'p qo'llanadigan eng ko'p an'anaviy 4usullardan biri badiiy takrordir. Biz bu usulning adabiyotshunoslikda kam ishlanganligini inobatga olib uni alohida tekshirib, xillarini aniqlashga harakat qildik. Kuzatishlarimiz bu usulning ham

bog'cha yoshdagi bolalar ertaklarida kattalar ertaklariga nisbatan o'ziga xos belgilar asosida qo'llanishni tasdiqladi.

- Ma'lumki, badiylikni asosiy me'zonlaridan biri asar mazmunining haqqoniyligidir. SHu ma'noda maktabgacha tarbiya yoshdagi bolalarga mo'ljallangan o'zbek ertaklarining ko'pligida badiiy to'qima rol xayot bilan bog'langan.

- Kichkintoylarga biror amarning ma'qul bo'lishi va bo'lmasligi shu asrning badiiy saviyasiga, unga yaratilgan obrazlarning jozibadorligiga bohliq. Agar asarlar badiiy jihatdan har tomonlama mukammal yozilgan bo'lsa, qaysi janrda bo'lishidan qat'iy nazar, ular kichkintoylarni qiziqtiradi, qalblarini haljonlantiradi.

Bu fikrning to'g'riligini H.Nazir, Mirmuqsin, X. To'xtaboev, O'. Xoshimov, S.Anorboev, F.Musajanov, M.Murodov, M.jaloliddinova, T.Muhammadiyorova, YA.Sadullaeva, K.Rahim, N.Orifjonov A.Irisov, boshqa o'zbek adabiyotlarining xar xil mavzularda yozilgan ko'plab hikoyalari ham tasdiqladi. Binobarin maktabgacha yoshdagi bolalar ruhiga, bilim saviyasiga mos tarzda ular tarbiyasida muhim rol o'ynovchi g'oyalar tasvirli, xal extgan janridagi asarlardan aslo qolishmaydi.

Maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalar hikoyasining asosiy qahramonlari shu yoshdagi bolalardir. Yozuvchilarimiz kichkintoylarning oila va bog'chadagi xayotini, o'rtoqlari davrasida turli yig'inlardagi xatti – xarakatlarini kattalar mehnatida ishtirok etishni, tabiatdagi har xil narsa – hodisalarga bo'lgan munosabatlarini g'oyaviy mazmunga mos badiiy shaklining uyg'unligida tasvirlash, aks ettirishi orqali ularning ruhiy – ma'naviy qiyofasini ko'rsatishga, o'ziga xos tipik obrazlarning yaratishga arakat qilganlar.

Kichkintoylar hikoyalarining ko'pchiligida bolalar bilan birga kattalar obrazi ham yaratilgan. Adiblarimiz insoniyatning ahloq – odob, avlod – ajdodlarga hurmat olamni bilish, tabiatni saqlash, o'zgartirish va boshqa sohalarda erishgan eng yaxshi yutuklarini olsa shu qahramonlar obrazi orqali yosh avlod ongiga etkazishga intilganlar.

Iste'dodli adiblar o'z hikoyalarida ana shu obrazlar (kattalar va bolalar) orqali balalarning rang-barang ruhiy olamning badiiy tadqiq etishga va ko'rsatishga erishganlar.

Tekshirishlarimiz barcha yoshdagi bolalar hikoyasida tarbiyaviy ahamiyatga molik qahramonlarning yakka va umumlashgan obrazlarini yaratishning o'ziga xos xususiyatlari borligini tasdiqlaydi. Bu xususiyatlar, ayniqsa ruhiyat, muhit, sharoit, tabiat, portret tasviriy, nutqiy tavsif tipiklashtirishi, individuallashtirish, qahramonning ruhiy olamini ochish va boshqa obraz yaratish vositalari hamda usullarini qo'llashi me'yorlarida aniq bilinib turadi. SHuning uchun yozuvchilarimizning hikoyalarini obraz, harakatlar, yaratish mahorati va badiiy uslub muammolari asosida tekshirayotganda ana shu jihatlarga alohida ahamiyat berish zarur. Bularmiz ko'zlangan maqsadga erishib bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati.

1. “Barkamol avlod – O`zbekiston taraqqiyotining poydevori” Prezident Karimovning I.A. O`zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi IX sessiyasida so`zlagan nutqidan. Toshkent 1997-yil.
2. “O`zbekiston XXI asr bo`lag`asida. Xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari” I.A.Karimov Toshkent “O`zbekiston” nashriyoti 1997-yil.
3. Karimov I.A. O`zbekistonning o`z istiqlol va taraqqiyot yo`li. Toshkent “O`zbekiston” 1992-y.
4. “O`zbekiston, Milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. Karimov I.A., 1-tom “O`zbekiston” nashriyoti. Toshkent. 1996-yil.
5. Karimov I.A. Yuksak ma`naviyat - yengilmas kuch. –T.: Ma`naviyat, Toshkent. 2008-yil
6. Shodiyeva O.Q. Nutq o`stirish uslubiyoti . “O`qituvchi” nashriyoti, Toshkent. 2008-yil.
7. Shodiyeva Q.S. Maktabgacha yoshdagi bolalarni to`g`ri talaffuzga o`rgatish. Toshkent. 1995- yil
8. Asqarova M., Matchonov S. va boshqalar. Kichik yoshdagi bolalar nutqini o`stirish. Toshkent. “O`zbekiston”, 2001 y.
9. Rozboyeva E.M., Ahmedova Q.A. Nutq o`stirish metodikasi. Toshkent. 2004 yil
10. Qodirova F.R., Qodirova R.M.. Bolalar nutqini rivojlantirish nazariyasi va metodikasi. Toshkent. 2006- yil
11. Qodirova F.R., Qodirova R.M.. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ikkinchi tilni o`rgatish metodikasi. Toshkent. 2004 –yil
12. Qodirova F.R., Fayzullayeva M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning nutqini o`stirish metodikasi. (Mashg`ulotlar ishlanmasi) Toshkent. 2008 yil

13. Fayzullayeva M., Rustamova M. Maktabgacha yoshdagi bolalarning og'zaki nutqini o'stirish .(Tayyorlov guruhi uchun mashg'ulotlar ishlanmasi) Toshkent. 2009 yil
 14. G'ulomov A., Qobulova B. Nutq o'stirish mashg'ulotlari . Toshkent, "O'qituvchi". 2001 y.
 15. Zokirova H., Qobiljonova G. O'qituvchi nutq madaniyati. Andijon, 2010
 16. Abdullayeva M.A., Raxmatullayeva D.R.. O'yin mashg'ulotlarini boshqarish orqali maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalar faolligini oshirish. Toshkent. 2016 - yil.
 17. Yo'ldoshev J.G'. Ta'lim yangilanish yo'lida. – Toshkent. O'qituvchi, 2000-yil.
 18. Yo'ldoshev J.G'. , Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Qo'llanma. – Toshkent. O'qituvchi, 2004- yil.
 19. Qodirova R.M. Maktabgacha yoshdagi bolalarda dialogik nutqni rivojlantirishning psixologik omillari. Toshkent. 1998 –yil
 20. Qodirova F.R.. Maktabgacha yoshdagi rusiyzabon bolalarni o'zbekcha so'zlashishga o'rgatish . Toshkent. 1997 –yil
 21. Qodirova F.R.. Maktabgacha yoshdagi bolalarni chet tiliga o'rgatishning lingvodidaktik muammolari. Toshkent. 2002 –yil
 22. "Kim bo'lsam ekan".(sherlar,rivoyatlar, hikmatlar, mashg'ulotlar). Toshkent. 2006 –yil
 23. Nutq o'stirish.(Bolalar bog'chalari uchun she'r va topishmoqlar to'plami). Toshkent. 1992 –yil
- Internet tarmog'i bo'yicha veb-saytlar ro'yxati:
1. www.ziyonet.uz
 2. www.google.uz
 3. www.referat.uz
 4. www.uzedu.uz